



O`zbekiston Respublikasi
Oliy va o`rta maxsus ta`lim Vazirligi
Buxoro Davlat universiteti
Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti
Iqtisodiy ta`lim va turizm kafedrası



Himoyaga ruxsat etildi

Kafedra mudiri _____ i.f.n. dots. Tadjieva S.

«_____» _____ 2012yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, bu masalani o`qitish uslubiyoti”

Bajardi: 5140900 –“Kasbiy ta`lim” (ijtimoiy – iqtisodiy soha) yo`nalishi kunduzgi bo`lim 4 “E” kurs talabasi
O`roqov Aziz.

Ilmiy rahbar:

Tadjiyeva S.U.

Himoya sanasi

D.A.K.ning bahosi

«_____» _____ 2012yil

D.A.K.ning xulosasi

Buxoro - 2012

O`zbekiston Respublikasi
Oliy va o`rta maxsus ta`lim Vazirligi
Buxoro Davlat universiteti
Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti
Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida
Mutaxassislik: 5140900 – “Kasbiy ta`lim” (ijtimoiy – iqtisodiy soha)
yo`nalishi

“Tasdiqlayman”
Kafedra mudiri _____
« ____ » _____ 2012y.

O`roqov Azizning malakaviy bitiruv ishi

TOPSHIRIQ

Bitiruv malakaviy ishi mavzusi: “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, bu masalani o`qitish uslubiyoti”

1. Universitet bo`yicha buyruq bilan
tasdiqlangan _____

2. Tugatilgan _____ ishning _____ talaba _____ tomonidan _____ topshirish
muddati _____

3. Tushuntirish xatining tarkibi _____

Bitiruv ishiga tegishli savollar ro`yxati:

4. Grafik materialning miqdori (muhim chizmalarning ko`rsatgichi bilan) _____

5. Ilmiy maslahatchilar: _____

6. Ilmiy rahbar: . Tadjiyeva S.

7. Vazifani _____ topshirish
sanasi _____

8. Vazifa _____ ijroga _____ kabul
kilindi _____

Talaba imzosi _____

Kafedra mudiri imzosi _____

Eslatma: Bu vazifa tugallangan ishga ilova

MUNDARIJA

Kirish.....	4
I.BOB. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ijtimoiy – iqtisodiy ahamiyati.....	8
1.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tushunchasining mohiyati va uning iqtisodiyotda tutgan o`rni.....	8
1.2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining xorij tajribasi, uning O`zbekistonda shakllanishi va rivojlanishi...	26
1.3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni bank, soliq va audit bilan bog`liqligi hamda uning huquqiy asoslari.....	41
II.BOB. “Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish” masalalarini iqtisodiy fanlarda o`qitish uslubiyoti.....	63
2.1 .”O`z biznesingizni yarating” kursini ahamiyati.....	63
2.2.Tadbirkorlikni (biznesni) yuritishning moliyalashtirish manbalari mavzusini texnologik xaritasi.....	68
2.3. Tadbirkorlikni (biznesni) yuritishning moliyalashtirish manbalari mavzusini elektron ko`rgazmali usulda o`qitish.....	77
Xulosa va takliflar.....	88
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	91

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida va Respublika Oliy majlisi sessiyalarida qabul qilingan qonunlarda O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikni moliyaviy jixatdan qo'llab-quvvatlash, ularga har tomonla ma madad berish, ularning samarali ishlashi va rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ular yordamida mamlakat iste'mol bozorini yuqori sifatli tovarlar bilan to'ldirish masalalariga alohida e'tibor berilgan. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik to'g'risida"gi qonunga asosan biznes va tadbirkorlikning faoliyat sohalari, huquqlari, majburiyatlari, ma'suliyatlari va manfaatlarini himoya qilish davlat tomonidan kafolatlangan.

1995 yil 21 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi sessiyasida qabul qilingan "Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida" gi qonunda kichik biznes bilan shug'ullanuvchi ishbilarmonlarga yanada ko'proq imtiyozlar berildi. Bu o'z navbatida kichik biznes bilan shug'ullanuvchi ishbilarmonlarning ishchanligini yanada faollashtirishga, mamlakat yalpi milliy maxsuloti hajmini oshirishga, inflyatsiya jarayonlarini sekinlashtirishga, iqtisodiyotni barkarorlashtirish va rivojlantirishga keng imkoniyat yaratdi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes sohasi bilan shug'ullanuvchi ish bilarmonlarga talab yanada ortadi. Bu oliy va o'rta maxsus uquv yurtlari oldiga ham bir qator vazifalar qo'yadi. Ulardan biri kichik va o'rta biznes uchun malakali mutaxassislar tayyorlash, qayta tayyorlash, xodimlar malakasini oshirish, ularni zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy bilimlar bilan qurollantirishdir. Bu yo'nalishda zarur bo'lgan moddiy-texnik baza respublikada bozor munosabatlariga o'tish bilan bir vaqtda yaratilib, rivojlantirib borilmoqda. Ammo, zamonaviy iqtisodiy fanlar, ayniqsa biznes, tadbirkorlik, marketing va menejment kabi fanlar bo'yicha o'zbek tilidagi adabiyotlarning kamchiligi bu sohadagi ishlarni yanada kuchaytirishni talab qilmoqda.

Ushbu diplom ishimda kichik biznesning mohiyati va iqtisodiyotda tutgan o'рни, uning rivojiga ta'sir etuvchi omillar, xorijda va O'zbekistonda kichik biznesning shakllanishi va rivojlanishi, kichik biznes faoliyatini tashkil etish, tahlil etish, rejalashtirish, boshqarish, kichik biznesni bank, soliq xizmati va audit bilan aloqalari, uni moliyaviy holati va kredit bilan ta'minlash shakllarini ko'rsatib berdim. Shuningdek, ushbu diplom ishimda kichik biznesni axborot bilan ta'minlash usullari, kichik biznes korxonalarida tijorat faoliyatini tashkil etish yo'llari, kichik biznesni boshqarish psixologiyasi kabi dolzarb muammolarni ham batafsil bayon etdim.

Ma'lumki oxirgi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyoti mo'tadil ravishda jadal sur'atlar bilan rivojlanayotir. 2004 yilda YaIM ishlab chiqarish 7,7%ga, 2005 yil I yarim yilligida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,2%ga o'sdi. Bunday o'sishga sezilarli ta'sirni kichik biznes sub'ektlari va tadbirkorlikning ustivor sur'atlar bilan rivojlanishi sabab bo'ldi. Kichik biznes va tadbirkorlik ishlab chiqarishning eng samarali shakli ekanligini e'tiborga olib, Prezidentimiz I.A.Karimov, uning YaIM dagi ulushini 2004 yilgi 35,7% dan 2007 yilda 45%ga etkazish vazifasini qo'ydi. Bu vazifani amalga oshirish uchun ilgari qabul qilingan huquqiy xujjatlardan tashqari shu yil iyun oyida bir qator muhim farmon va qarorlar qabul qilindi. Bu esa kichik biznes va tadbirkorlikni iqtisodiyotning eng muhim va hal qiluvchi bo'g'iniga aylanishiga imkon yaratadi. Shundan kelib chiqilsa, kichik biznes va tadbirkorlikni har tomonlama, shu jumladan soliqqa tortish masalalarini maxsus o'rganishni talab etadi

Yuqorida ko'rib o'tilgandek, kichik biznes sub'yektlari O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida muhim o'rin egallaydi.

Farovonligimiz xalq xo'jaligi va bozor munosabatlarining rivoji, tadbirkorlikning keng yoyilishisiz hech mumkin emasligini bugun deyarli har birimiz anglab qoldik. Deyarli har birimiz ko'nglimizda mustaqil bir foydali ish boshlash fikri bor. Mamlakatimizda bunga ehtiyoj katta, xususan, kichik korxonalar bizda o'nlab, minglab emas, balki yuz minglab bo'lishi lozim.

Xo'sh, tadbirkorlar va kichik biznes sub'yektlari kimlar?

Tadbirkor deganimizda foyda olish maqsadida qonun tomonidan taqiqlanmagan faoliyat olib boruvchi jismoniy shaxsga aytiladi. Masalan, fuqaro har kuni o'z tandarida non yopib, oila a'zolari bilan issiq nonni iste'mol qilsa, u tadbirkor bo'lmaydi, agar u shu nonni bozorga olib chiqib foyda olish maqsadida sotsagina u tadbirkor bo'ladi.

Kichik biznes sub'yektlari katta korxonalardan hech qanday farq qilmaydilar va ulardan faqatgina miq'yoslari bilan farq qiladigan korxona, tashkilot va mikrofirmalardir, yoki kichik korxonalar deganimizda qandaydir boshqa korxonalar tushunilmay, balki barcha mulkchilik shakllariga asoslangan oddiy korxonalar tushinilib, ulardan faqat miq'yoslari bilan farq qiladilar. Miq'yosni belgilovchi ko'rsatkich bo'lib har qanday ko'rsatkichlardan faqat bittasini tanlab olingani xizmat qiladi. Masalan, bunday ko'rsatkich sifatida: ishlovchilar soni, ishlab chiqarish quvvatlari, maxsulotni sotadigan miqdori, asosiy fondlar va shu kabilar xizmat qilishi mumkin, ammo shulardan faqat bittasi butun mamlakat - O'zbekiston miq'yosida uzoq yilga tanlab olinishi shart. Hozirgi paytda biz shu ko'rsatkich sifatida ishlovchilar sonini me'zon sifatida qabul qilganmiz.

Bitiruv malakaviy ishi (BMI) ning maqsadi bo'lib kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mohiyatini ochib berish va ularni dars jarayonida nazariy jihatdan tadbiq etish.

Ushbu maqsadga erishish uchun bizlar quyidagi vazifalarni hal qilishga

- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tushunchasining mohiyati va uning iqtisodiyotda tutgan o'rnini aniqladik
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining xorij tajribasini o'rgandik
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni bank, soliq va audit bilan bog'liqligi hamda uning huquqiy asoslari bilan tanishdik.
- O'z biznesingizni yarating" kursini ahamiyati yoritildi.
- Tadbirkorlikni (biznesni) yuritishning moliyalashtirish manbalarini ko'rsatib o'tdik.
- Tadbirkorlikni (biznesni) yuritishning moliyalashtirish manbalari mavzusini elektron ko'rgazmali usulda o'qitish namunasini keltirib o'tdik.

Bitiruv malakaviy ishi predmeti kichik biznes va xususiy tadbirkorlik turlari va uni rivojlantiruvchi omillar.

Tadqiqot obyekti bo'lib: Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir.

BMI kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat Birinchi bob "**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ijtimoiy- iqtisodiy ahamiyati**" deb nomlangan bo'lib unda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tushunchasining mohiyati va uning iqtisodiyotda tutgan o'rne, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining xorij tajribasi, uning O'zbekistonda shakllanishi va rivojlanishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni bank, soliq va audit bilan bog'liqligi hamda uning huquqiy asoslari to'liq yoritib berilgan.

Ikkinchi bob: "**Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalarini iqtisodiy fanlarda o'qitish uslubiyoti.**" deb nomlangan bo'lib unda "O'z biznesingizni yarating" kursini ahamiyati, "Tadbirkorlikni (biznesni) yuritishning moliyalashtirish manbalarini" mavzusini o'qitishning zamonaviy pedagogik usullari, "Tadbirkorlikni (biznesni) yuritishning moliyalashtirish manbalari" mavzusini elektron ko'rgazmali usulda o'qitish kabi masalalar keng yoritilgan.

Xulosa qismida "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bu masalani o'qitish uslubiyotini dolzarbligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari" mavzusi bo'yicha xulosalar va takliflar berilgan.

I.BOB: Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ijtimoiy – iqtisodiy ahamiyati

1.1 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tushunchasining mohiyati va uning iqtisodiyotda tutgan o`rni.

Hozirgi paytda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish, qo'shma korxonalar tuzish, korxonalarni ochiq tipdagi hissadorlik jamiyatlariga aylantirish va ayniqsa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalariga katta e'tibor berilmoqda.

O'zbekistonda va MDXda biznes haqidagi maqolalar, adabiyotlar 60-yillarning o'rtalarida paydo bo'ldi. Biroq u paytdagi barcha maqolalar tanqidiy tarzda yozilar edi. Chunki biznesni asosini xususiy mulkchilik tashkil etar edi. Xususiy mulkchilik esa o'sha paytda bizning mafkuramiz uchun butunlay yod narsa edi. Lekin biznesni fan tariqasida o'rganish faqatgina 90-yillarning boshlarida bozor munosabatlariga asta-sekin u o'tish bilan boshlandi.

«Biznes» so'zining lizcha so'z bo'lib, u tadbirkorlik faoliyati yoki boshqacha so'z bilan aytqanda kishilarni foydaolishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyatidir.

Xorijiy adabiyotlarda biznes ta'rifini ko'p turlari mavjuddir. Insoniyat jamiyatining butun rivojlanish tarixiy u yoki bu jihatdan doimo biznes bilan bog'liq bo'lgan.

Biznesmen (Tadbirkor) so'zi birinchi marotaba Angliya iqtisodiyotida XVIII asrda paydo bo'lib, u «Mulk egasi» degan ma'noni bildiradi. Jumladan, Adam Smit tadbirkorni mulk egasi sifatida ta'riflab, uni foyda olish uchun qandaydir tijorat g'oyasini amalga oshirish maqsadida iqtisodiy tavakkalchilika

boradigan kishidir, - deb ta'kidlaydi. Tadbirkorni o'zi, o'z ishini rejalashtiradi, ishlab chiqarishni tashkil etadi, mahsulotni sotadi hamda olgan daromadiga o'zi xo'jayinlik qiladi.

Xorijiy mamlakat olimlari darsliklarda biznesga sistemali ta'rif beradilar. AQSHning Texas va Illinoya universitetlari professorlari S. Rozenblat, R. Bonnington va B. Nidlsar tomonidan tayyorlangan «Biznes kontsepsiyasi» darsligida: «Biznes nima?» degan savolga ular:

Biznes – bu ish yuritish sistemasidir.

Biznes – bu insonlarga kerak bo'lgan mahsulotlarni yaratishdir.

Biznes – bu ishdir.

Biznes – bu biznes qanday yashashimizdir.

Biznes – bu bizning ijtimoiy-iqtisodiy sistemamizning markaziy ko'chasidir.

Biznes – bu o'zimizning xoxish istaklarimizni qondirish uchun yaratgan sistemamizdir.

Biznes – bu jamiyatni xoxish va ehtiyojlarini qondirish uchun yaratilgan ishlab chiqarish sistemasidir. – deb javob berganlar.

Biznes – bu nima? Biznes - bu puldan pul qilish, lekin. . . albatta insonlarga kerakli bo'lgan mahsulotni ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish natijasida puldan pul qilishdir. Biznesning formulasi oddiy, ya'ni P-P. Lekin bu oddiy formula mazmunida murakkab hayot jarayoni yotadi. Biznes - bu avvalo ishlab chiqarishni tashkil etish, iqtisodiy faoliyat va munosabatlar, xayotni o'zi, so'ngra esa pul ishlash demakdir.

Kichik biznesning iqtisodiyotda tutgan o'rni

Bizning mamlakatimizda xorijiy mamlakatlar tajribasiga suyanan holda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga davlat tomonidan katta e'tibor berilmoqda. Bunga 1995 yilning 21 - dekabrda Oliy majlis tomonidan qabul qilingan "Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish tug'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunini misol qilib ko'rsatsa bo'ladi. Erkin raqobatga tobora keng imkon yaratish, turli mulkchilik shakllaridagi bozor sub'ektlari o'rtasida bo'ladigan iqtisodiy – huquqiy munosabatlarni jahon

andozalari darajasida tashkil etish borasida ushbu qonun muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur qonunning 2- moddasida kichik va xususiy tadbirkorlik sub`ektlarining miqyosi aniq belgilab berilgan. Jumladan, sanoat va qurilishda - 50 kishigacha, qishloq xo`jaligi va ishlab chiqarishning boshqa sohalarida - 25 kishigacha, fan va ilmiy xizmat ko`rsatish sohalarida -10 kishigacha, chakana savdoda - 5 kishigacha bo`lgan korxonalar kichik va xususiy tadbirkorlik doirasidagi korxonalar bo`lib hisoblanadi.

Xo`sh, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlangan davlatlarda qanday e`tirof etiladi va uning mohiyati nimadan iborat? AQSHda 500 tagacha xodimi bo`lgan korxona kichik korxona hisoblanadi. Germaniya va boshqa G`arbiy Evropa davlatlarida esa 300 tagacha xodimi bo`lgan korxona kichik korxona hisoblanadi.

Xorijiy mamlakatlarda kichik korxonalarni 2 ta tamoman o`zgacha turlarga bo`lish mumkin:

- 1) hayotni ta`minlovchi korxonalar;
- 2) tez o`suvchi korxonalar.

Odatda kichik korxonalarning qariyb 80-90% o`ta kichik bo`lib, ular o`sish uchun cheklangan imkoniyatlarga ega. Bunday korxonalar hayotni ta`minlovchi korxonalar deb yuritiladi. Ushbu turdagi korxonalarga maslahat – xizmati ko`rsatuvchi firmalar, tor doirada ixtisoslashgan do`konlar, kafe va shu kabilar kiradi. Ulardagi xodimlar to`liq bo`lmagan ish kuniga ega bo`lib, firma manzillari sifatida tadbirkorlar o`z uylaridan foydalanadilar. Hayotni ta`minlovchi korxonalar kichik biznes korxonasi bo`lib, uning egasi yetarli turmush darajasini ta`minlash maqsadida tashkil etadi.

Ikkinchi turdagi korxonalar tez o`suvchi korxonalar deb nomlanadi. Ularning bunday nomlanishiga sabab, ularning maqsadi tezroq kichik biznes chegarasidan chiqib rivojlanishdir. Tez o`suvchi korxonalar kichik biznes korxonasi bo`lib, ular tezkor o`sish tendentsiyasiga va qo`yilgan sarmoyaning yuqori qaytmiligiga ega hisoblanadi. Odatda bunday turkum korxonalarga bir necha kishi rahbarlik qiladi. Tez o`suvchi korxonalar yirik investitsiy manbalariga tez yaqinlasha oladilar va

buning natijasida keng bozorda yangi tovarlar va xizmatlarni kiritish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bunday turdagi korxonalar har yili AQSHda chop etiladigan "Ink" jurnalida e'lon qilinadi. 1990 yili 500 ta shunday kompaniyaning yillik oboroti 9,6 mlrd. Dollarga teng bo'ldi va 56,8 ming ish joyini tashkil qildi. 1990 yilda bu ro'yxatda "Kodjentriks" firmasi peshkadamlikni egallab, uning asosiy faoliyati Sharlotta shaxrida (Shim. Korolinashtati) elektrostantsiyalarni qurish va ta'minlash bo'lgan. Ma'lum yillarda ushbu ro'yxatda "CHarlzSHvab" va "Mikrosoft" korporatsiyalari karvonboshlik qilganlar. Hozirgi paytda ushbu korporatsiyalar yuksak rivojlangan korporatsiyalar safiga kiradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning O`zbekiston Respublikasi va viloyatlar kesimi bo`yicha yalpi ichki mahsulotdagi ulushi

Viloyatlar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulshni, foizda		
	200 yil	2009 yil	2010 yil
O`zbekiston Respublikasi	48,2	50,1	52,5
Qoraqalpog`iston Respublikasi	58,6	60,7	63,6
viloyatlar:			
Andijon	48,9	51,2	54,7
Buxoro	59,3	61,4	64,1
Jizzax	72,3	74,4	77,3
Qashqadaryo	50,9	52,6	55,0
Navoiy	29,1	31,2	34,4
Namangan	69,7	72,4	76,0
Samarqand	68,8	71,2	73,6
Surxondaryo	67,2	70,0	71,7
Sirdaryo	72,1	75,5	77,4
Toshkent	49,6	51,8	54,7
Farg`ona	55,0	56,1	59,5
Xorazm	66,1	68,2	71,8
Toshkent sh.	48,0	46,7	49,9

**O`zbekiston Respublikasida kichik biznes sub`ektlarining iqtisodiyot
tarmoqlaridagi ulushining o`shish sur`ati, foizda**

Ko`rsatgichlar	2005 yil 	2006 yil	2007 ynl	2008 ynl	2009 yil	2010 yil
Sanoat	10,0	10,9	13,2	14,6	16,9	19,6
Qishloq xo`jaligi	85,7	93,9	97,5	97,8	97,9	97,9
Investitsiya	24,0	26,5	23,7	24,6	23,7	30,8
Qurilish	50,9	52,1	55,4	58,4	41,6	52,3
Savdo	43,7	45,7	48,2	48,1	46,3	50,5
Xizmat ko`rsatish	52,5	50,8	50,1	48,5	47,6	47,7
Yuk tashish	24,6	27,2	34,7	38,9	39,5	40,0
Yo`lovchilar tashish	65,7	69,4	75,7	78,5	78,9	78,9
Bandlik	64,8	69,1	72,1	73,1	73,9	74,3
Eksport	6,0	10,7	14,8	12,4	14,6	13,6
Import	33,7	34,5	32,0	35,7	42,5	36,6

Xususan, mazkur sohaning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 2005 yildagi 10,0 foizdan 2010 yilda 19,6 foizga, qishloq xo`jaligida tegishli ravishda 85,7 foizdan 97,9 foizga, savdoda 43,7 foizdan 50,5 foizga, yuktashishda 24,6 foizdan 40 foizga, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida 24 foizdan 30 foizga, eksport hajmida esa 6 foizdan 13,6 foizga qadar oshgan

Bugungi kunda ma`rifatli bozor iqtisodiyotining muhim talabi – kam mehnati sarflagan holda, ko`proq va sifatli mahsulot ishlab chiqarish, kishilarning talab va ehtiyojlarini to`la qondirish va shu asosda foyda olishdan iborat. Bu boradagi ishlab chiqarish jarayonidagi asosiy harakatlantiruvchi kuch - tadbirkorlardir.

Respublikamizning strategik yo`nalishi jamiyat va fan oldiga ishlab chiqarishning muntazam rivojlanishi ta`minlaydigan yangicha iqtisodiy munosabat va g`oyalarni qaror toptirish, iqtisodni boshqarishni tubdan qayta isloh qilish,

yangicha xo`jalik yuritish usullarini doimo izlab topish va uni amaliy kundalik hayotga tadbqiq qilishni talab qilmoqda. Bu quyidagilarni talab etadi:

- - Moddiy ishlab chiqarish sohasiga ko`proq ishbilarmon tadbirkor va bilimdon kishilarni jalb etish;
- - Menejer, marketing, tadbirkorlik va bozor iqtisodiyoti sohasi bo`yicha, turli mutaxassislar uchun etarli har tomonlama doimo yangi bilim berishni keng tadbir – choralarini amalga oshirish;
- - Hozirgi bozor iqtisodiyoti muammolarini yechadigan har xil mutaxassislarni tayyorlash;
- - Ishlab chiqarish jarayonlarini raqobatga chidamli qilib tashkil etish;
- - Mulkning aksariyat qismini davlat tasarrufidan chiqarish; turli xil mulkchilik shakllarini joriy qilishni tezlashtirish;
- - Joylarda mahsulotlarni qayta ishlaydigan kichik korxonalar tashkil etish;
- - Shaxsiy yordamchi xo`jalikni yanada rivojlantirish;
- - Xususiy mulkchilikka keng imkon berish;
- - Aksionerlik uyushmalarini tashkil etish;
- - Birgalikda aralash korxonalar qurish yo`liga o`tish;
- - Ijara, dehqon (fermer) xo`jaligi ko`rinishlaridagi xo`jalik yuritish usulini qo`llashni yanada rivojlantirish;
- - Mehnat intizomini mustahkamlash;
- - Davlat bozor iqtisodiyoti sohasidagi strategik yo`nalishlari siyosatini tartibga solib, boshqarish yo`lini takomillashtirib borish;
- - Chet el munosabatlarini mustahkamlagan holda ularning kapitallaridan unumli foydalanish;
- - Moliya - kredit, soliq va bank ishlarini takomillashtirish va h.k.

Biznes – biror faoliyat (ish) yuzasidan bo`lgan munosabat, aniqrog`i ishbilarmonlarning iqtisodiy munosabatlaridir.

Biznesning uch turi ajratiladi:

1. savdo - vositachilik
2. ishab chiqarish biznesi

3. xizmat ko`rsatish asosidagi biznes.

Ishlab chiqarish biznesida ularning ikki tipi ajratiladi:

1. Traditsion tipdagi tadbirkor. Bunday tadbirkor har doim talab qilinadigan mahsulotni ishlabchiqaradi.
2. Novator - tadbirkor. U yangi texnologiyalardan foydalanish asosida ixtirolarni ishlab chiqarishga qo`llaydi va avval ma`lum bo`lgan tovarlarni ishlab chiqarishni yangi usullar yordamida amalga oshiradi. Bunda yangi ishlabchiqarishlar, tarmoqlar yaratilishi mumkin.

Biznes – munosabat sifatida bir qator belgilarga ega: bizneschilar o`z manfaatlariga ega, foyda olishga intiladi, hatto xatarli ishga qo`l urishga ham tayyor, tashabbuskor, ishning siru – asrorlarini biladigan, o`zaro iqtisodiy aloqalar madaniyatini egallagan bo`ladilar. Ularning aloqalari hamma ishtirokchilar uchun naf keltiradi. **Biznesmen** – kapital egasi, mulkdor, mulkini ko`paytirishga intiluvchi shaxs.

Biznes – bu ruxsat etilgan, jamiyat a`zolariga naf keltiruvchi faoliyat bilan shug`ullanib, pul daromad topishni bildiradi. Biznes keng ma`nodagi qonuniy yo`l bilan daromad topishga qaratilgan faoliyatdir. Biznesning mohiyati ayriboshlashdadir. Pulni tovarga va yanada ko`proq pulni, ya`ni foydasi bilan qaytgan pulni tovarga ayriboshlash biznesning mohiyatini ko`rsatadi:

Madaniylashgan bozor iqtisodiyoti pul topishnin g`ayri qonuniy usullarini, ya`ni qalloblik, tovlamachilik, poraxo`rlik, o`g`rilik, tilamchilik, bosqinchilik, giyohvand(narkotik) moddalar bilan shug`ullanib pul topish kabilarni haqiqiy biznes tan olmaydi. Ammo ijtimoiy hayotda g`ayriqonuniy yo`l bilan pul topish uchrab turadi, lekin bu bozor munosabati qonunlari bilan bog`liq emas.

Biznes ishbilarmonlik munosabati sifatida o`z sub`ektlari (ishtirokchilari)ga ega, ya`ni yakka tartibda biznes bilan shug`ullanuvchi kishilar, tadbirkorlar jamoasi va uyushmasi, yakka iste`molchilar birlashmalari va nihoyat, davlatning iqtisodiy idoralariga ega. **Tadbirkorlik to`g`risidagi O`zbekiston Respublikasi Qonunining «Tadbirkorlik sub`ektlari» deb atalgan 4 – moddasida biznesning (tadbirkorlikning) sub`ektlari deb quyidagilar ko`rsatilgan:**

- - Xususiy tadbirkorlar;

- - Tadbirkorlar jamoasi va tadbirkorlik assotsiatsiyasi;
- - Mahsulot (xizmatlar, ishlar)ni iste'mol qiluvchi yoki ulardan foydalanuvchi alohida va ko'pchilik (jamoat) shaklidagi iste'molchilar va shuningdek iste'molchilar uyushmasi va assotsiatsiyalari;
- - Kontrakt asosida yollanib mehnat faoliyatini amalga oshiradigan xodimlar va kasaba uyushmalari;
- - Bitim tuzishda to'g'ridan - to'g'ri ishtirok etuvchi davlat, tuzilmalari (tadbirkorlarga hukumat buyurtmalarini berishda, baho belgilashda, maxsus ishlar va boshqalarni bajarishda imtiyozlar hajmini, tartibini aniqlashda).

Davlat tuzilmalari (organlari) ishbilarmonlar munosabatlariga, ularni qonuniy asosda biznesni amalga oshirishni himoya qilish, kafolatlash maqsadida salbiy (aks) ta'sir ko'rsatish ham mumkin.

Bozor iqtisodiyotida brokerlar, dillerlar, marketologlar, bankirlar, moliyachilar, ma'muriy rahbarlar faol ishtirok etadilar.

Tadbirkorlik ob'ekti bo'lib ishlab chiqarish omillarini samarador kombinatsiyasini oqilona ishlab chiqish va natijada maksimal darajada daromad olish hisoblanadi.

Biznesga bozor orqali talab – ehtiyojni qondiruvchi faoliyat ham kiradi. Iste'molchilar (xaridorlar)ning biznesda ishtirok etishdan manfaati tovar va xizmatlarni sotib olishlaridir. Tadbirkorlik biznesidan farqliroq iste'molchi biznesida hamma fuqarolar qatnashadi, ularning talab – ehtiyojlarini bozor orqali qondirish zarurati faol tadbirkorlikni talab qiladi. Tadbirkorlik biznesning bir qismi, u tovarlar ishlab chiqarish va xizmat turlarini ko'rsatish yo'li bilan daromad topishdir. Biznesga tadbirkorlikdan tashqari boshqa yo'l bilan, masalan pul yoki qimmat baho buyumlarni bankka qo'yib, daromad topish yoki ijaraga berib pul topish kabilar kiradi, lekin bu faoliyat sohalarida yaratuvchilik yo'q, ya'ni hech bir narsani yaratmay, u boylikdan boylik undirishdan iborat xolos.

Biznes munosabatining ikkita asosiy talabi bor. **Birinchidan**, biznes ishtirokchilari suverenitetga, mustaqillik, erkinlikka ega bo'lishlari shart. Ammo bu biznes sub'ektlarining mustaqilligi bilan cheklanmaydi, balki har bir

sub`ektning boshqa sub`ekt, ya`ni o`zi aloqa qiladigan sub`ekt manfaatlari bilan hisoblashish, uning niyatlarini va hatti – harakatlarini bilish va to`g`ri tushunishni ham talab qiladi. Sub`ektlarning biznes yuzasidan bo`lgan munosabatlari belgilangan tartib – qoidalar doirasida bo`ladi va buni davlat nazorat qiladi. **Ikkinchidan**, biznes aloqalaridagi sub`ektlar manfaatlarining murosali munosabatda bo`lishi talab qilinadi. Murosa ish yuzasidan bir – biri bilan aloqa qiluvchilar o`zaro majburiyatlarini kanda qilmay bajarishlarini, xatti – xarakatlari har ikki tomonga zarar keltirmasligini, ularning suvereniteti buzilmasligini taqozo etadi. **Garchi nazariy jihatdan biznes va tadbirkorlik tushunchalari o`rtasida farq bo`lsada, biroq kundalik xayotda biznes bilan shug`ullanuvchi barcha kishilarni tadbirkor deb hisoblanadi.**

Bu tushunchalar sinonim sifatida ishlatiladi. Ayrim hollarda ular o`rtasida farq ajratilmaydi, ba`zi holatlarda ham ikkala so`z ham ishlatiladi. Balki bu tushunchalar o`rtasida farq va o`xshash tomonlari ham bor.

Buni biz quyidagi fikrlardan bilamiz.

Kichik biznesda, butun bozor iqtisodiyoti singari uchta asosiy jarayon amal qiladi va unda uch xil tabaqadagi shaxslar ishtirok etadi. Ularning tavsiloti quyidagi jadvalda keltirilgan.

Yakka xolda tadbirkorlikda, mikrofirmalar, kichik korxonalarda tadbirkor, biznesmen va menedjer bitta shaxs sifatida namoyon bo`ladi. Tadbirkorlar yangi korxona yaratadi, unda o`zi biznes bilan shug`ullanadi va uning o`zi menedjerlik vazifasini bajaradi.

Shunday qilib, tadbirkor o`zining shaxsiy vazifalarini boshqarish bilan bir vaqtda boshqa birovlarning** ishlarini, vazifalarini ham ya`ni mayda tovar ishlab chiqaruvchilik, kapitalist mulk egasi, korxona boshqaruvchisivax.k. **vazifalarni ham bajaradi.

Lekin o`z shaxsiy faoliyatining rivojlanishi, ishlab chiqarish hajmini ko`payib borishi bilan, ish hajmini o`sishi va kapitalini ko`payishi, boshqarish ishlarni qiyinlashuvi sababli biznesmen va menedjerlarni ishga qabul qilishiga to`g`ri keladi. Bu yerda ko`ramizki, bozor iqtisodiyoti ishtirochilari orasidagi farq yaqqol ko`rinadi.

Demak, biznes – pul topish yo`lidagi xarakat, boylikni, mulkni oshirishga intilish bo`lsa, tadbirkorlik – bu ixtiro etish, ishlab chiqarish omillaridan oqilana foydalanish yordamida unga o`xshash bo`lmagan yangilikni yaratish va amalga oshirish yoki eskisini yo`qotib, takomillashtirib ishlab chiqarishni qayta qurish, ya`ni novatorlik.

Korxona faoliyatini muvoffaqiyatli olib borishi uchun biznesmen ko`pgina sifatlarga ega bo`lishi kerak:

- - O`z sohasini bilimdoni bo`lishi;
- - Iqtisodiyot asoslarini bilishi;
- - Huquqiy tarbiyachi bo`lishi;
- - Psixolog;
- - Komp'yuter texnikasini bilishi;
- - Chet tilini bilishi va x.k.lar.

Shunday qilib, biznes faoliyati bozor iqtisodiyotining asosiy bo`g`ini bo`lgan holda bozor xo`jaligi tizimi tufayli tarkib topgan. Bozor iqtisodiyotidagi evolyutsion o`zgarishlar biznes faoliyatini iqtisodiy tashkil etish shart - sharoitlarini ham o`zgartirib boradi.

Ularning maqsadlari har xil.

Biznesning maqsadi, odatda foyda olish va uni barqaror holga keltirish, foydani muttasil oshirib borish va boyib ketish, foyda hisobiga kapital ko`paytirishdir. Bunday foyda biznesning keyingi rivojini va ijtimoiy talablarini qondirishga qaratilgan bo`ladi. Buni quyidagi chizmadan ko`ramiz.

Tadbirkorning maqsadi esa yangi fikr va g`oyalarni izlash, tahlil qilish, o`zining tashabusskorlik, yaratuvchilik qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, o`z ishni rivojlanishida muvofaqiyatga erishishdir.

Biznesning eng asosiy jihati – bu tadbirkorlikdir. Tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyatining kafolatlari to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonunida, (14.04.1999.):

«Tadbirkorlik (tadbirkorlik faoliyati) qonun hujjatlariga muvofiq daromad (foyda) olishga qaratilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko`rsatish) yo`li bilan tavakkal qilib va o`z

mulkiy javobgarligi ostida amalga oshiriladigan tashabbuskor faoliyatdir» deb ko`rsatilgan.

“**Tadbirkor**” – yuridik shaxs bo`lsa ham bo`lmasa ham doimiy ravishda tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanuvchi jismoniy shaxsdir (yakka tartibdagi tadbirkor)» Bunday iboralar ham tadbirkorlik va tadbirkor to`g`risida to`liq ma`lumot bermaydi, ularning mohiyatini yetarli darajada yoritmaydi.

**Tadbirkorlik faoliyati o`zi nima**, uning o`ziga xos belgilari va uni amalga oshirishdagi muhim printsiplar qaysilar? Bu masalani **V.Dolyaning lug`at kitobidagi tushuncha** orqali bir muncha oydinlashtirish mumkin. «Tadbirkor degani yangi bir ishga qo`l urish, uni bajarishga kirishish, qandaydir kattaroq ishlarni amalga oshirishdir».

**Tadbirkor, ya`ni o`ylab ish ko`ruvchi kishi** – korxona ishini yurg`izishga moyil, qobiliyatli, katta hajmdagi ishlarga qo`l ura oladigan, jasur, cho`rt kesar va bunday ishlarga botir bo`lgan kishidir».

«**Tadbirkor**» tushunchasini birinchi marta XVIII asr boshida iqtisodiyot nazariyasiga kiritgan oliming ingliz iqtisodchisi **R.Kantil'on** bo`lgan. U ma`lum bo`lgan baholarda birovlarining tovarlarini sotib olib o`zinikini ham o`ziga noma`lum bo`lgan bahoda sotuvi noma`lum va belgilanmagan miqdorda daromad oluvchi kishini tushungan. Bu yerda – tavakkalchilik tadbirkorning eng asosiy ko`rsatkichi deb hisoblangan.

XVIII asrning oxiri - XIX asrning boshlaridagi **fransuz iqtisodchisi J.B.Sey** tadbirkorning o`z hisobiga va tavakkalchilik bilan ish boshlab qandaydir mahsulotni o`z foydasi uchun ishlab chiqaruvchi shaxs deb tushungan.

Uning ta`kidlashi bo`yicha, tadbirkor ishlab chiqarish omillari - kapital, mehnat, tabiiy resurslardan oqilona, o`rniga qo`yib foydalanadi. Sey tadbirkorning o`ziga xos xususiyatlarini, uning daromadini xarakterini yetarli darajada batafsil yozgan edi.

Nemis iqtisodchisi V.Zombart (XIX asr oxiri - XX asr boshlarida) ko`rsatishi bo`yicha tadbirkor – bu zabt etuvchi, tavakkalchilikka tayyor turish qobiliyatiga ega bo`lgan, ma`naviy erkin, g`oyalarga boy, shijoatli va o`z so`zini

o'tkazadigan, tashkilotchi, birgalikda bajariladigan ishga ko'pgina kishilarni birlashtiradigan shaxsdir.

Tadbirokorlik nazariyasiga muhim hissa qo'shgan avstriya iqtisodchisi I.Shumpeterdir. U o'zining 1912 yilda yozgan «Iqtisodiy taraqqiyot nazariyasi» kitobida tadbirkorni ishlab chiqarish omillaridan foydalanishning yangicha kombinatsiyalarini amalga oshiradigan va shu bilan iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlaydigan kishi deb ataydi. Yangi kombinatsiyalarni amalga oshirish deganda turli xildagi yangiliklarni kiritish, yangi narsalarni ishlab chiqarish ilgari noma'lum bo'lgan yoki yangi sifatdagilarni yaratish, yangi texnologiyalarni kiritish, mahsulot sotadigan yangi bozorlarni, xom ashyo manba'larini o'zlashtirish, xo'jalik faoliyatida tashkiliy o'zgarishlar yaratilishlarni amalga oshirishni nazarda tutgan edi.

Shumpeter fikricha agar yangi kombinatsiyalar amalga oshirilmaydigan bo'lsa, u holda tadbirkorlik to'g'risida gapirishga asos yo'qdir.

Shumpeter fikricha tadbirkorlik eng avvalo iqtisodiy sohada namoyon bo'lsa ham, bu hodisa ko'proq ijtimoiy – iqtisodiy hodisa bo'lsa, balki psixologik voqelikdir.

Keng ma'noda kishining tadbirkorlik holati – bu tashabbuskorligi, novatorligi, manfaatdorligi, ishga eskicha emas, yangicha yondoshishdir.

Shumpeter tadbirokorlik faoliyatining uch asosiy tomonini ajratadi: 1. Hokimlikka, hukmron bo'lish va erkinlikka intilish; 2. Kurashishga xoxish va muvaffaqiyat uchun muvaffaqiyatga intilish; 3. O'z ishidan xursand bo'lish, huzr qilish, lekin bunday holat uning hatti – harakatlarini belgilovchi vosita bo'ladi.

Shumpeter iqtisodiy omillarning ahamiyatini inkor etmay, uni tan olib aytadiki, xususiy mulk va foyda tadbirkorlikni ifodalovchi xususiyatlar bilan yonma – yon bir qatorda turadi.

Nobel mukofotining sovrundori (1974y) ingliz iqtisodchisi F.Xayeka fikricha tadbirkorlik bu biron bir kasb bilan shug'ullanishi emas, bu xo'jalik sub'ektining hatti - harakatidir. Xayeka tadbirkorlikni iqtisodiyot sohasidagi yanada aktivroq ko'rinadigan ijtimoiy – psixologiya voqea deb biladi.

Qat'iy qaror tadbirkorlik va xushyorlik – davlatni boshqarish qoydalaridan biri bo'lgan. AmirTemurning Movarannahrda.

Xulosa qilib aytish mumkinki, nazariyachi iqtisodchi - olimlar tadbirkorlikka to'la - to'kis tavsilot berganlar va unga psixologik tomonlarni o'z ichiga olgan ijtimoiy - iqtisodiy voqelik deb qaraganlar.

Tadbirkor va biznesmenning faoliyati natijalari turlicha tugallanadi. Tadbirkor o'z qobiliyati hisobiga tadbirkorlik daromadini olsa, biznesmen kiritgan kapitalidan foyda oladi.

Tovarlar va tovalashgan xizmatlarni yaratish bozor iqtisodiyoti uchun birlamchi bo'lganidan uning asosini tadbirkorlik tashkil etadi. Tadbirkorlik – iqtisodiyotning suyangan tog'i - yu, ishongan bog'i, xarakatga keltiruvchi kuchi hisoblanadi. **Tadbirkorlik - kishilar (mulkchilik sub'ektlari)- ning moddiy va pul mablag'larini (kapitalni) amalda xo'jalik oborotiga tushirib, daromad topish uchun mo'ljallangan iqtisodiy faoliyatdir. Tadbirkorlik umuman pul topish emas, balki yaratuvchilik faoliyati orqali daromad olishni bildiradi.** Tadbirkorlik ish yuritmay turib, kapital hisobidan tekin daromad ko'rib, uni parazitlarcha o'zlashtirishni inkor etadi.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun bir qancha tug'ma va o'zi ega bo'lgan sifatlar zarur. Shuning uchun haqiqiy tadbirkorlar tez – tez uchramaydilar. Masalan, amerikaning ilmiy izlanishlari asosidagi ma'lumotlariga ko'ra mehnatga qobliyatli aholining har 100 tasidan, atigi 7 kishi haqiqiy tadbirkor bo'lib chiqadi. Biznesmen bo'lib yuradiganlar esa ko'p. Biznes - «Ish» , «kommertsiya» demakdir. Amerikacha biznes - bu jamiyat talablarini va xoxishini qondirish uchun ishlab chiqarish tizimidir. Biznes - bu mashshaqatli va foydali ishdir».

Tadbirkorlik mulkiy munosabatlar doirasida yuz beradi. Mulkchilik turli – tuman bo'lganidek tadbirkor ham bir xil emas.

Tadbirkorlikning muxim xususiyatlari (belgilari yoki tomonlari) quyidagilar:

- mustaqillik;
- tavakkalchilik;
- mustaqil fikrlash;

- o`z kuchiga ishonish;
- yaratuvchanlik, navatorlik qobiliyati;
- tinimsiz izlanish;
- tashabbus ko`rsatib ishlash;
- uddaburonlik.
- Mulkiy munosabatlarning ishtirokchisi bo`lish, ishlab chiqarish omillarining barchasiga yoki ba`zi biriga va yaratilgan tovarlarga egalik qilish.

Javobgarlikni his etish.

iqtisodiy erkinlik, xo`jalik faoliyati turini tanlash, uni resurslar bilan ta`minlash, oldi - sotdi ishlarini yuritish, ishlab chiqarishni boshqarishda erkinlik.

Iqtisodiy hatti – harakatlar uchun ma`suliyatni o`z zimmasiga olish: ish natijasiga javob berish, tavakkal qilib ish yurita olish, iqtisodiy xatarli ishga qo`l urush.

Foyda olishga intilish: foydaga erishish chora – tadbirlarini ko`rish, olingan foydanio`z bilganicha ishlatish.

Tijorat siriga ega bo`lish: biznesga oid va o`zgalarga

Raqobat kurashida qatnashish: bozorda amal qiluvchi qoidalarga rioya etgan holda halol raqobatda qatnashib, uning g`irrom, yovvoyi usullaridan voz kechish.

Halollik bilan ish yuritish, qalloblik, g`irromlik va aldamchilik kamoyil bo`lmaslik. Obro` (imij)ga ega bo`lish, boshqalarga ishonish va boshqalari ishonchini qozonib shon – shuxrat orttirish, firma nomini e`zozlab, unga putur etkazmaslik, firmani obro`sizlantirmaslik.

Tashqi muhit (soliq va boshqa tashkilotlar), o`z xodimlari va hokozalar) bilan yaxshi munosabat o`rnatish.

Qadim – qadimdan xalqimiz xunarmadchilik, savdo – sotiq ishlari bilan mashg`ul bo`lib kelganlar. Masalan, ko`pchilik, qandolatchilik, duradgorlik, maxsido`ztlik, etikdo`ztlik, misgarlik, chegachilik, zargarlik, zardo`ztlik, novvoychilik, to`quvchilik, dehqonchilik, chorvochilik kabi kishilarning xilma –

xil talablarini qondiradigan ishlar bilan band bo`lib o`z kasblari nom chiqarib kelganlar.

Hozirgi zamon tadbirkori eng avvalo bozorni xaridorgir tovarga to`ydira oladigan tovar ishlab chiqaruvchidir. Tadbirkorlik faollashmasa iqtisodiy o`sinh yuz bermaydi. Tadbirkorlik faoliyati odatda, muomala sohasidan, savdo – sotiqdan boshlab, dastlab shu yerda rivoj topadi. Shu sababli savdo kapitali sanoat kapitalidan, ya`ni ishlab chiqarishga solinadgan kapitaldan oldin, savdogar esa sanoat kapitalistlaridan oldin paydo bo`lgan.

Savdo – sotiqdagi tadbirkorlikdan farq qilgan holda ishlab chiqarishdagi tadbirkorlik nisbatan yirik kapital, uzoq vaqt, katta tajriba, keng va chuqur bilimlar, boshqarish mahorati va malakali ish kuchi talab qiladi. U serkapital, serharakat bo`ladi va nihoyat katta toqat talab qiladi. Masalan, savdoda 1 million so`mlik oborot kapitali va 1 oy muhlat etarlik bo`lsa, sanoatda 1 million so`mlik mahsulot yaratish uchun 2 - 3 million so`mlik kapital va 3 - 4 oy vaqt ketishi mumkin. Ishlab chiqarish tadbirkordan nafaqat iqtisodiy, balki texnikaviy va boshqarish bilimlarini talab qiladi.

Tadbirkorlik innovatsiya faoliyati tarziga kirsa, ya`ni texnika va texnologiya yangiliklarini joriy etish bilan bog`liq bo`lsa, iqtisodiy o`sinh tezlashadi.

Tadbirkor xoxlagan bankini tanlab ish ko`radi, bir necha bankda o`z pul mablag`larini o`z bilganicha ishlatishi, o`z mablag`ini naqd pul yoki naqd pulsiz schyotdan schyotga ko`chirib olish imumkin. Tadbirkor byudjet bilan ham erkin aloqada bo`ladi. Belgilangan soliq summasini byudjetga to`laydi, byudjetdan tegadigan pulni o`zi o`zlashtiradi. U xoxlagan moliyaviy kompaniya yoki tashkilot faoliyatida ishtirok etadi. Tadbirkorlik uchun qulay muhit – bu yagona iqtisodiy maydonning, jumladan, yagona pul maydonining mavjud bo`lishidir.

Tadbirkorlik xususiyatlariuning quyidagi asosiy vazifalarini kelib chiqadi:

1. **Tadbirkor maqsadni aniq belgilaydi**, ishlab chiqarish dasturini tuzadi va unga erishadi. Er, kapital va mehnat resurslarini, tovar ishlab chiqarish va xizmat ishlarini bajarish maqsadida ularni yagona jarayonga birlashtiradi. **Tashabbusni o`z qo`liga oladi.** Tadbirkor bir vaqtning o`zida ishlab chiqarishni harakatga

keltiruvchi kuch va o`rtada turgan vositachi hisoblanadi. Foydali jarayonlarni amalga oshirish uchun boshqa resurslarning qo`shilishini ta`minlaydi. Dasturda maqsadga erishishning yo`l - yo`riqlari, ta`minot va xarid kabi bandlari o`z aksini topishi lozim. Dasturning bandlar soni, qanday davrni o`z ichiga olishi, korxonaning qanday bo`limlari uchun tuzilishi, ichki sharoitlari va tashqi muhitning o`zgarishi ham o`z aksini topishi maqsadga muvofiqdir.

Tadbirkor korxonada sturini tuzishda quyidagi asosiy mulohazaga e`tibor beradi:

- - Maqsadga qanday erishis mumkin;
- - Korxonani kelajakda nimalar kutmoqda (ya`ni ishlarni rejalashtirish).

Agar shu ikkita mo`ljall bir - biriga mos keltira olinsa, korxona faoliyatida sturini tuza olish mumkin. Dastur tuzishni shartli ravishda uch bosqichga bo`lish mumkin:

1. Mahsulot sotiladigan bozorni tahlil etish lozim. Tahlil ikki yoqlama uzviy bog`langan holda qilinadi. Birinchisi, korxona ishlab chiqargan mahsulotning bozordagi ijobiy tomonlarini o`rganib chiqish, ikkinchisi salbiy tomonlarini chamalab ko`rish. Ikkala holda ham tadbirkor talab va taklif o`zgarishi, fan va texnika yutuqlari, raqobat o`zgarishini hisobga olgan holda bir yildan besh yilgacha bashorat qilishi kerak.
2. Korxonaning ichki imkoniyatlarini to`liq hisobga olgan holda maqsadni to`g`ri qo`ya bilish. Eng yaxshisi, korxonaning kuchli tomonlari va kamchiliklari bir – biri bilan solishtirilib, talab va taklifning o`zgarishiga bog`lanadi. Solishtirish natijasida qaysi maqsad imkoniyatga mos keladi, qaysinisi mos kelmasligi yaqqol ko`rinib qoladi. Shular asosida tadbirkor o`z maqsadini yana bir bor qayta ko`rishi lozim. So`ngra imkoniyat mavjud bo`lgan, uddasidan chiqa oladigan vazifalar tanlanadi.
3. Korxona faoliyati rivojlaishining eng foydali variantini tanlab olish. Korxonaning xom – ashyosi va tashkiliy imkoniyatlari majmuasi aniqlanadi. Bunda asosan uchta ko`rsatkichga e`tibor berish kerak:

a) korxonaning bozor muhitida tutgan o`rni, ya`ni chiqariladigan mahsulotlarning qanchalik talabga javob berayotganligi, sifat jihatidan ham, son jihatidan ham;

b) korxona qaysi xo`jalik shakliga mansubligi, ya`ni tarmoqqa qarashlimi yoki xo`jalik sektorigami va h.k.;

v) ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turining xilma - xilligi, ya`ni taklif etilayotgan turning talabga qanchalik mos kelayotganligi.

Yuqorida qayd etilgan ko`rsatkichlardan ko`rinib turibdiki, korxona doirasida ham, bozor sharoitida ham o`zining kelib chiqishi va xususiyatlariga ko`ra bashorat qilish ancha mushkul ishdir. Shu sababli dastur tuzishda uchinchi bosqichni o`rganayotganda qo`shimcha maslahatchilarga murojat etish maqsadga muvofiqdir.

4. **Tadbirkorning muhim vazifalaridan yana biri** – biznes faoliyati bilan shug`ullanayotganida korxona faoliyati yo`nalishini belgilovchi asosiy qarorlarni qabul etishdek murakkab vazifalarni o`z zimmasiga olishdir.

5. **Tadbirkor – kommertsiya asosida yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish**, ulardan foydalanish, yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini yoki xatto biznesni tashkil etishning yangi shakllarini kundalik hayotga kiritib boradi.

6. **Tadbirkor – tavakkalchilik bilano`z ish vaqti, mehnati, ishidagi obro`si**, shuning bilan birga o`zining shaxsiy va o`z kompanionlari yoki aktsionerlarining sarflagan mablag`larini garovga qo`yib ish olib boradi. Tadbirkorga foyda olish kafolati berilmagan. **Shuning uchun ham kapitalizm iqtisodiyotida tadbirkorlik qobiliyatiga alohida o`rin beriladi, u «mehnat» tushunchasiga kirmaydi, chunki uningo`ziga xos xususiyatlari, ahamiyati bor.**

«Mehnat» - kishilarni tovar ishlab chiqarish va xizmat ko`rsatish borasidagi jismoniy va aqliy qobiliyatlaridir. «Mehnat» va «tadbirkorlik qobiliyati» mehnat resurslarini tashkil etadi.

Tadbirkor aniq bir ishlab chiqarish faoliyatini tanlab olib, o`z korxonasini yurgizib yuborgandan so`ng, uning asosiy vazifasi ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz boshqarishdan iborat bo`ladi. Bunday holatda tadbirkorning nazarida u hamma yerda zarurga o`xshaydi, go`yo u siz hech qanday ish bitmaydi. Lekin, bunday o`ylash aslo to`g`ri emas. Barcha vazifalarni o`z

zimmaga yuklash noto'g'ridir, chunki ishlab chiqarish jarayonida shunday holatlar bo'ladiki, boshqalar ushbu ishni yaxshiroq bajarishlari mumkin. U tadbirkorlik bilan ish olib borishi kerak. Masalan, xodimlar masalasida, ta'minot masalasida, xarid qilish, ishlab chiqarish jarayonini ta'minlash masalasida tadbirkor, birinchi o'rinda yaxshi tashabbuschi, tashkilotchidir.

Tadbirkor o'zining yuqorida zikr etilgan xizmat vazifalarini amalga oshirishda korxonaning ishlab chiqarish jarayonida sturini tuzish, sistemali boshqarish, iqtisodiy tahlil etish, korxona istiqbolini bashorat etish kabi ilm – fan yutuqlaridan unumli foydalaniladigan ilg'or bilimlarni qo'llashi maqsadga muvofiqdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorning asosiy maqsadi o'z qo'l ostidagi ishlab chiqarish vositalaridan, ixtiyoridagi resurslardan unumli foydalangan holda bozor talablariga to'g'ri javob beruvchi mahsulot ishlab chiqarib, unumli foyda olishdir. Maqsadga erishish yo'llarini ishlab chiqishda tadbirkorlarning albatta o'z dasturi bo'lishi lozim. Dastur korxonaning katta yoki kichik bo'lishidan qat'iy nazar, tuzilishi maqsadga muvofiqdir.

1.2 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining xorij tajribasi, uning O'zbekistonda shakllanishi va rivojlanishi

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy ijtimoiy isloxlarning tub negizini tadbirkorlik, omilkorlik va ishbilarmonlik xislatlarisiz tasavvur etish qiyin. Erkin bozor munosabatlarining keng ravnaq topishi kishilar hayotida, ularning turmush tarzida, ma'naviy va hayotiy ko'nikmalarida namoyon bo'lmoqda. Hozirgi vaqtda respublikamiz fuqorolari rivojlangan Evropa davlatlari, AQSH, Yaponiya kabi davlatlarning boy amaliy tajribasi xususida yetarli axborotga ega bo'lib bormoqdalar.

Respublikada iqtisodiy islohatlarni yanada chuqurlashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning jarayonlarini tobora avj oldirish, shuningdek tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab quvatlashni ta'minlash maqsadida:

O`zR – sining Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish Qo`mitasi bilan O`zbekiston Respublikasi moliya vazirligi huzuridagi davlat mulki jamg'armasi negizida O`zbekiston Respublikasi davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab – quvvatlash davlat Qo`mitasi tashkil etilgan.

O`zbekistonda tadbirkorlikni qo'llab - quvvatlanishi – raqobatchilikni rivojlanishiga iste'mol bozorini tovarlar va xizmat ishlari bilan to'ldirishga yangi ish joylarini yaratish, katta miqdordagi mulk egalari va tadbirkorlarni shakllanishiga xizmat qiluvchi Respublikada o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng muxim yo'nalishlaridan biridir. Tadbirkorlikni qo'llab quvvatlanishi nafaqat iqtisodiyotni muttasil rivojlanishi, xo'jalik aloqalarini tuzatish, raqobatni rivojlantirish va iste'mol bozorini to'ldirish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy maqsadlarni ta'minlashi zarur. Bulardan tashqari bunday davlat yordami iqtisodiy siyosiy vazifalarni hal etishi respublikaning barcha hududlarida siyosiy mo``tadillikni mustaxkamlashi, tadbirkorlik faoliyatiga tegishli bo'lgan ijobiy ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishi, unga aholining aktiv qismini jalb etishi ishsizlikni, inflyatsiya va boshqa negativ salbiy ijtimoiy holatlarni oldini olishi lozim.

Bulardan ko`rinib turibdiki kichik biznes va tadbirkorlik fanini o`qitilishi davr talabining taqozosi, bozor munosabatlariga o`tishning ob`ektiv zaruriyatidan kelib chiqqan. Shu tufayli bu fanni o`qish, o`rganish yoshlarimizni, talabalarni va shunday faoliyat turi bilan shug'ulanuvchilarni bilimini oshiradi, to'ldiradi, ularning tadbirkorlik sohasidagi qobiliyati, tashabbusi va foydali xatti – xarakatlarini oshiradi.

“Bugungi kundagi eng muhim masala – bu kichik va o`rta biznesni rivojlantirish, ularga keng imkoniyat va imtiyozlar tashkil qilib berishdir”.

O`zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan, shaxsan Prezidentimiz I.A.Karimov boshchiligida bunday imkoniyatlar yaratildi

Kichik va o`rta biznesni xorijiy davlatlardagi rivoji.

Yaponiyada kichik va o`rta biznes tarmoqlarida ish bilan band bo`lgan aholining 80 foizi, Evropa Ittifoqi mamlakatlarida esa 70 foizi ishlaydi.

Yaponiyada esa asosiy e`tibor yirik biznes bilan kichik va o`rta biznes o`rtasida kooperativ aloqalar tizimini shakllantirishga qaratildi.

Yaponiya davlatida ham iqtisodiyotning mazkur bo`g`ini mamlakatda ishlab chiqarilayotgan **yalpi ichki mahsulotning yarmidan ko`prog`ini bermoqda.**

Aynan shunday iqtisodiy siyosat natijasida **Yaponiyada** islohatlarning boshlig`ini davrida aholi jonboshiga **500 AQSHdollari miqdorida daromad to`g`ri kelgan bo`lsa**, hozirga kelib bu ko`rsatkich 38 ming dollarga yetmoqda. Bu – dunyodagi eng yuqori ko`rsatkichlardan biridir.

Jahon sanoatida etakchi o`rin tutadigan «Yamaha» transmilliykompaniyasi bugungi kunda dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida bir necha milliard AQSH dollari miqdoridagi o`z mahsulotlarini sotadi.

Mana shu mashhur kompaniya ham, 40 – yillarning oxirida 7 kishidan iborat velosipedlarni ta`mirlovchi kichik kooperativ sifatida faoliyat boshlangan edi.

1 I.Karimov ma`ruzasi "Isloxatlar strategiyasi - mamlakatimiz salohiyatini yuksaltirishdir". Gaz. "Xamkor" 2003 20 fevral'.

Yaponiyada kichik va o`rta korxonalarga tegishli bo`lgan mustaqilkompaniyalar 10 mln. tadir.

AQSH iqtisodiyotida kichik va o`rta biznesning ulushi ishlab chiqariladigan yalpi ichki mahsulot hajmini keyingi 40 yil mobaynida 10 foizdan 52 foizga o`sdi.

2002 yil boshida AQSHda 22,4 mil.ta kichikbiznes sub`ektlari ishlagan. Ular YAIM - ning 51% - ni yaratdilar. Xususiy sektordagi ish joylarini 51% - ni ish bilan ta`minladilar.

Amerikada 19 mln. Turli xildagi mustaqil firmalarning 90 % mayda ishlab chiqarishlardir. Ular xissasiga yangi yaratilayotgan ish joylarining 2/3 qismi to`g`ri keladi.

Evropa ittfoqiga a`zo bo`lgan mamlakatlarning yalpi ichki mahsuloti tarkibida esa kichik va o`rta biznes ulushi 67 foizdan ortiq ekani ham bejiz emas.

Misol uchun, Germaniya davlati tajribasini olib ko`raylik. Bu mamlakat kichik va o`rta biznesni rivojlanishi hisobiga qisqa vaqt mobaynida Evropa iqtisodiyotining ustunlaridan biriga aylanib ketdi. Davlatning bu boradagi oqilona tufayli urushdan keyingi yillarda kichik va o`rta biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi 10 foizdan 69 foizgako`tarildi.

Germaniyada qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan, oziq ovqat va boshqa iste`mol mollarining ko`plab turlarini ishlab chiqaradigan korxonalar davlat tarafidan har tomonlama rag`batlantirildi. Ular qishloq joylarida sexlar shaklida kichik – kichik ishlab chiqarish quvvatlari sifatida tashkil etilgan edi.

Bu mamlakatlarda kichik va o`rta biznesni har tomonlama qo`llab – quvvatlashga qaratilgan davlat tizimi shakllangan bo`lib, u birinchi galda bu boradagi huquqiy bazani yaratishga va tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini ishlovchi himoya qilishga asoslanadi.

Shuningdek, ularning uzoq muddatli kredit resurslaridan imtiyozli foydalanishi, imtiyozli soliq tartibini, ishlab chiqarish moliyaviy, ijtimoiy, bozor infra tuzilmalarini shakllantirishi ham pirovard natijada iqtisodiyotning ana shu tarmog`ini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shunisi muhimki, bu mamlakatlarda iqtisodiyot tarkibining o`ziga xos xususiyatlaridan, xalqning mentalitetidan, mavjud resurslar va boshqa omillardan kelib chiqib, kichik va o`rta biznesni aniq maqsadli qo`llab – quvvatlash bo`yicha puxta o`ylangan davlat siyosati amalga oshiriladi.

Quyidagi jadval ma`lumotlari ham kichik va o`rta biznesni jahon iqtisodiyotidagi rivojlanish holatini, uni tutgan o`rnini ko`rsatadi.

Kichik va o`rta korxonalarni ayrim mamlakatlar iqtisodiyotida tutgan o`rni

Mamlakatlar	Kichik va o`rta firmalar		Kichik va o`rta firmalarni salmoqi %	
	Ming	Mingkishi	Band bo`lgan hodim – lar	YAMM
	dona	hisobiga	miqdorida	
Velikobritaniya	2930	46	49	50 - 35
Germaniya	2290	37	46	50 - 54
Italiya	3920	68	73	57 - 60
Frantsiya	1980	35	54	55 - 62
AQSH	19300	74.2	54	50 - 52
Yaponiya	6450	49.6	78	52 - 55
Rossiya	836.2	5.65	9.6	10 - 11
O`zbekiston	51.2	2.1	2.5	12 - 6

O`zbekistonda kichik va xususiy biznesning rivojlantirishning zaruriyati va ahamiyati.


Kichik va o`rta biznesni, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish biz amalga oshiradigan islohatlarimizning asosiy bo`g`ini hisoblanadi, deb takidlab o`tdilar Prezidentimiz I.Karimov, 17- iyul kuni Vazirlar mahkamasining majlisida.*

Nima uchun deganda, **birinchidan**, kichik va o`rta biznes rivojlangan jahon iqtisodiyotining tarkibini tashkil etuvchi muhim tarmoq hisoblanadi. Uning faoliyati nafaqat yirik biznesning balki butun malakat iqtisodiyotining muvoffaqiyati rivojlanishiga bevosita ta`sir qiladi. Bundan tashqari ichki bozorni iste`mol tovarlari bilan to`ldirilishi va aholiga turli xizmat ko`rsatilishi, eksport salohiyatining o`sishi, aholini ish bilan ta`minlash va uni real daromadlarini ko`paytirish masalalarining yechimi ham ana shu tarmoqning ne chog`lik barqaror rivojlanishiga bog`liq.

Ikkinchidan, iqtisodiyotning globallashuvi jarayonida jahon bozorida raqobat yanada kuchayadi. Bunday sharoitda aynan kichik va o`rta biznes yirik ishlab chiqaruvchilarga nisbatan kapital mablag`I sarfini ham talab qilishi, ixchamligi, zarur tamoyillarga, bozor kon`yukturasining o`zgaruvchan talablariga hamda vaqt – vaqti bilan bo`lib turadigan iqtisodiy inqirozlarga tezroq moslasha olish, ishlab chiqarish quvvatlarini jadal madernizatsiya qilish imkoniyatiga ega.

2010 yilda mamlakatimizda jami 950 mingdan ortiq ish o`rni tashkil etilganini katta mamnuniya bilan qayd etishimiz lozim. Bu yangi tashkil kilingan umumi isho`rin-larining 600 mingdan ziyodi yoki 65 foizi kichik biznes soxasi va fermer xo`jaliklariga, 210 mingdan ortigi kasanachilik soxasiga to`gri keladi.

IslomKarimov



Manba: Davlat statistika bosh boshqarmasi.

Ushbu rasmdan ko`rinib turganidek, 2005-2010 yillar davomida respublikada yaratilgan ish o`rinlari soni 520 mingtadan 950 mingtaga yoki 82,6 foizga oshgan.

2010 yilda mamlakatimizda jami 950 mingdan ortiq yangi ish o`rni tashkil etilib, ularning qariyb yarmi kichik kor-xonalar, mikrofirmalar tashkil etish, uy mehnatining barcha shakllarini rivojlantirish, yakka tartibdagi tadbirkorlikni, xizmat ko`rsatish va servis sohasini yanada rivojlantirish, uy-joylarni ta`mirlash ishlari ko`lamini kengaytirish hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hisobidan yaratildi. Jadvaldan ko`rinadiki, mamlakatimizda 2010 yilda yaratilgan jami 950 mingdan ortiq yangi ish o`rnining 36,6 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalarni tashkil qilish, 13,6 foizi yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish, 21,9 foizi uy mehnatining barcha shakllarini rivojlantirish hisobidan tashkil etilgan.


2010 yilda O`zbekistonda yaratilgan ish o`rinlari soni, birlik

Yo'llanmalar	Jami
Barcha yo`nalishlar bo'yicha yaratiladigan yangi ish o`rinlari, jami (ish o`rni)	950 001
Shu jumladan:	
Yangi ishlab chiqarish ob'ektlarini ishga tushirish, mavjud korxonalarni kengaytirish va quvvatlarni yangilash	56 316
Kichik korxona va mikrofirmalarni tashkil qilish	347 408
shundan:	
- sanoatda	52 882
- qurilish-pudrat ishlarini kengaytirish, jumladan, uy-joy qurilishi va ta'mirlashda	43 632
Yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish	129 177
Uy mehnatining barcha shakllarini rivojlantirish	207 972
Shu jumladan, korxonalar bilan kooperatsiyada mehnat shartnomalari asosida faoliyat olib borayotgan kasanachilik	62 518
Fermer xo`jaliklarini rivojlantirish (parrandachilik, chorvachilik, baliqchilik va boshqalar)	127 732
Ishlab chiqarish va ijtimoiy infra tuzilmani rivojlantirish	61 320
Ishlamasdan turgan korxonalar faoliyatini tiklash	8 889
Bozor infratuzilmasini rivojlantirish	11 187

So`nggi yillarda kichik biznes sub'ektlarining mamlakatimizda yangi ish o`rinlarini tashkil qilish, aholi daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili sifatidagi natijalari salmoqli bo`lib bormoqda. 2010 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida mamlakatimiz iqtisodiyotida band bo`lgan jami aholining 74,3 foizi faoliyat ko`rsatdi. Bu raqam 2000 yilga nisbatan 24,6 foizga ko`pdir (4.2.4-rasm). Bu esa kichik biznes sohasining aholi bandligini ta`minlash

va yangi ish o`rinlarini tashkil qilish muammosini hal etishda muhim o`rin egallashini ko`rsatmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholi bandligidagi ulushi



Manba: Davlat statistika bosh boshqarmasi.

Rasmdagi ma'lumotlardan ko`rinadiki, kichik biznes sub`ektlarining aholi bandligidagi ulushi 2000 yilda 49,7 foizni tashkil etgan bo`lsa, 2010 yilda bu ko`rsatkich 74,3 foizga yetdi yoki 2000 yilga nisbatan 24,6 foizga ko`paydi.

Dunyo bozorida iste`mol mollari kon`yukturasi hozirgi zamon sharoitida o`rtacha har 9 – oyda o`zgarib turadi. Agar shuni hisobga olsak kichik va o`rta biznes iqtisodiyotining izchil rivojlanishida nechog`lik muhim ahamiyatga ega ekani yaqqol ko`rinadi.

Yirik korxonalarning butlovchi qismlar, materiallar yetkazib beradigan tarmoqlarni barpo etishi rag`batlantirildi. Bu esa sanoatda import o`rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish muammosini hal etish imkonini beradi hamda tashqi bozorlarga yapon tovarlari va texnologiyalarini eksport qilish hajmining o`shishiga olib keldi.

Shuning uchun ham biz yangi davlat, yangi jamiyat qurishga kirishgan dastlabki kunlardanoq energetika – yoqilg`i va g`alla mustaqilligini qo`lga kiritish vazifasi bilan bir qatorda, ichki bozorni o`zimizda, o`z xomashyomizdan ishlab chiqarilgan tovarlar bilan to`ldirish, xizmat ko`rsatish tarmoqlarini keng yo`lga qo`yish vazifalarini ham muhim ustuvor yo`nalishlardan biri sifatida belgilab oldik, - deb ko`rsatadi prezidentimiz I.Karimov.

Bu masalaning yechimi, birinchi galda, xalq iste`mol mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxona va tarmoqlarni jadal rivojlantirishni taqazo qilar edi. Shu bilan birga, bu murakkab vazifani qisqa muddatda hal etish lozim edi.

Ayni vaqtda ishlab chiqariladigan mahsulotning sifatli va raqobatbardosh bo`lishiga erishish, bu ishni katta sarmoya va kapital mablag`larga ega bo`lmagan holda amalga oshirish zarur edi.

Mana shuning uchun kichik va o`rta korxonalarning, xususiylar tadbirkorlikning ahamiyati nechog`li beqiyos ekanini isbotlab o`tirishga hojat yo`q, - deb ko`rsatdi I.Karimov (17 iyul 2001 y. Vazirlar Mahkamasining majlisida so`zlagan nutqida).

**Masalaning boshqa yana bir o`ta muhim tomoni ham bor.** Mamlakatimizdagi demografik vaziyatning o`ziga xos xususiyatini inobatga oladigan bo`lsak, bizda aholi, ayniqsa, mehnatga qobiliyatli yoshlarning soni tez o`sib bormoqda. Ularning soni yiliga taxminan 200 - 230 ming kishiga ko`paymoqda

Shu nuqtai nazardan qaraganda, ortiqcha ishchi kuchlarini ish bilan ta`minlash, ishsizlik masalasini hal etish - mamlakatimizdagi eng dolzarb iqtisodiy va ijtimoiy muammolardan biridir.

Bu vazifani hal etishning eng samarali yo`nalishlaridan biri – kichik va o`rta korxonalar sonini ko`paytirish, xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo`llab - quvvatlashdan iborat. Bundan tashqari Mamlakatimiz aholisining katta qismi - deyarli 60 foiz qishloq joylarida yashaydi. Bugungi kunda aynan qishloq joylarida odamlarni ish bilan band qilish, daromad manbalari bilan ta`minlash, ayniqsa, keskin muammo bo`lib turibdi. Bu muammo yerga, birinchigalda, suv resurslarining cheklanganligi bilan bog`liq.

Tabiiyki, bu masalani qishloq xo`jaligi o`z xolicha hal qila olmaydi. Buning ustiga, qishloq xo`jaligi sohasida ishlab chiqarish samaradorligini yanada oshirish ishchi kuchlarini kamaytirib borishni taqazo etadi. Bu esa o`z navbatida qishloq aholisini ish bilan ta`minlash borasida yangi muammolarni keltirib chiqaradi.

Bu muammoning qanday yechimi bor?


Hammamizga ma`lumki, biz qishloq joylarida yirik sanoat komplekslarini barpo eta olmaymiz. Chunki ular o`z - o`zini qoplamaydi va kutilgan samarani bermaydi.

Buning uchun esa qishloq joylarida, birinchi galda, tadbirkorlik, kichik va o`rta biznesning jadal rivojlanishi uchun zarur bo`lgan barcha shart – sharoit va kafolatlarni yaratish, dehqon va fermer xo`jaliklari faoliyatining samaradorligini oshirish orqali yangi – yangi ish joylari tashkil etish kerak.

O`zbekiston Respublikasi va viloyatlar bo`yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholi bandligidagi ulushi

Viloyatlar	Kichik biznes va xususiy talbirkorlikning bandlikdagi (ulushi ,%)		
	2008 yil	2009 yi.ch	2010 yi.1
O`zbekiston Respublikasi	73,1	73,9	74,3
Qoraqalpog`iston Respublikasi	69,9	70,5	71,2
viloyatlar:			
Andijon	80,3	81,0	81,2
Buxoro	75	76,3	76,3
Jizzax	76,8	77,3	78,0
Qashqadaryo	73,3	74,4	74,9
Navoiy	55,3	55,9	55,9
Namangan	77,1	77,8	78,4
Samarqand	80	80,8	81,2
Surxondaryo	73,8	74,3	75,0
Sirdaryo	76,2	76,9	77,8
Toshkent	71,8	72,6	73,0
Farg`ona	77	77,5	77,5
Xorazm	76,5	77,5	78,0
Toshkentsh.	56,5	56,5	56,6

Respublikada 2010-yilda yangi ish o'rinlari tarkibi, foizda.



- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
- Ijtimoiy infra tuzilma
- Yirik korxonalar

Manba: Davlat statistika bosh boshqarmasi.

Barcha yangi mustaqil davlatlarda isloxlardan oldingi davrda mulkchilikning davlat shakli ustunlik qilgan. Xo'jalikning davlat sektorida mehnatkashlar umumiy sonining 4/5 qismi, kooperativlarda 14-15 % (bulardan yarmidan ko'pi kolxozlarda), xususiy sektorda 3% ga yakini band bo'lgan. Saksoninchi yillarning ikkinchi yarmida xujalikning kooperativ sektorini yaratishi jarayoni rivojlantirishga xarakat qilingan. Bu xarakatlar bozor infratuzilmasini rivojlanmaganligi, davlat mulkchiligining xukumronligi, xujalik yuritishning yangicha shakllarini davlat sektoriga qaramligi, xujalik qonunlarining noaniqligi va boshqa bir qator sabablar tufayli natijasiz bo'lgan.

Korxonalarni davlat tasarufidan chiqarish va xususiylashtirish iqtisodiy isloxlarning yetakchi bo'g'inidir. Xususiylashtirish natijasida demokratik jamiyatning ijtimoiy zaminini tashkil qiluvchi xususiy mulkchilik katлами shakllanishi, bozor iqtisodiyoti va ishlab chiqarishni samarali rivojlanishi uchun sharoitlar yaratilishi kerak.

Nixoyat, amalga oshirilayotgan tadbirlarni qo'yilgan maqsadlarga mosligini ta'minlash kerak: faol va samarali xo'jalik faoliyatidan manfaatdor mulkchilar va xususiy tadbirkorlikning tashkilotchilari tabaqasini tashkil qilish, bunda faoliyatning kerakli qiziqtiruvchi omillari, raqobat muxiti va infratuzilmani yaratish.

1.3 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni bank, soliq va audit bilan bog'liqligi hamda uning huquqiy asoslari.

. Kichik biznesni rivojlantirishda banklarning roli.

Bozor iqtisodiyotiga o'tilishi tufayli jamiyatda yangi moliyaviy siyosat ishlab chiqildi va xukumat tomonidan real xayotda amalga oshirilmoqda. Jamiyatdagi har bir iqtisodiy faoliyatni boshlanishi davlatning yakindan turib bergan moliyaviy yordami tufayli rivojlanib, takomillashib borishi mumkin.

Jumladan «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida»gi 1995 yil 25 dekabrda qabul qilingan Konunda kichik va xususiy tadbirkorlikni qo'llab quvvatlashda banklarni rolini oshirib borishga aloxida e'tibor berilgan.

Kichik va xususiy tadbirkorlik korxonalarini asosiy faoliyati banklar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular olib borayotgan faoliyat xom ashyoni sotib olish, ishlab chiqarilgan tovarlar, ko'rsatiladigan xizmatlarga xaq to'lash, ish xaqi bilan ishlovchilarni ta'minlash, turli toifadagi korxonalar, firmalar, yuridik shaxslar bilan bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar ya'ni olingan foydadan, daromaddan soliq to'lash, transport, kommunal xizmatlar uchun to'lovlarning barcha turlari banklar orqali, o'z navbatida olinadigan kreditlar xam boshqa xisob-kitoblar xam banklar orqali amalga oshadi.

Shuni aloxida ta'kidlash kerakki, mamlakatimiz mustakillikka erishguncha bank va banklar bilan buladigan turli iqtisodiy munosabatlar unchalik oshkora etilmas edi. Jaxon xujaligini muxim xo'jalik yuritish qismi bo'lgan kichik va xususiy tadbirkorlik korxonalarini barcha faoliyati banklar bilan bog'langanligi bugungi kunda xammaga ma'lum bo'lib qoldi. Shuning uchun xam rivojlangan mamlakatlarda masalan AQSHda bank tizimini faoliyati nixoyatda rivojlangan bo'lib, tadbirkorlarni aktiv iqtisodiy faoliyat ko'rsatishida banklar barcha mulk shaklidagi korxonalarga kompleks ravishda xizmat ko'rsatadi.

Umuman bank operatsiyalari passiv va aktiv operatsiyalardan iborat bo'lib, passiv operatsiyalar pul mablag'larini ma'lum biror yunalishga safarbar etishga qaratilgan. Banklar passiv operatsiyalar orqali jamgarmalarni va vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'larni ishlab chiqarishga safarbar etib foyda oladi. Aktiv operatsiyalar turli xarakterdagi kreditlarni berish operatsiyalari bilan bog'liq bo'lib, quyidagi elementlar bo'yicha turkumlanadi:

- 1. Muddatlari bo'yicha kreditlar 1 yillik, 5 yillik va 7-10 yilga muljallangan bo'lishi;**
- 2. Kreditlarni xajmi buyicha kichik, o'rta, yirik miqdorda xar bir mijozga individual va moliyaviy imkoniyatlarini xisobga olgan xolda amalga oshiriladi;**

- 3. Ayrim turlari bo'yicha maxsus kafolatni talab qilmaydigan, garov evaziga berilmaydigan kreditlar;**
- 4. Kreditorlarni turlari bo'yicha ya'ni davlat, tijorat, xususiy va boshqa turlari bo'yicha berish;**
- 5. Zayomni turlari bo'yicha yuridik shaxslar va xakozalarga berish;**
- 6. Vaqtinchalik foydalanish uchun investitsiya, iste'mol uchun, qarzlarni to'lash asosan eksport va import operatsiyalarini bajarish uchun beriladigan kreditlar.**

Xozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida mulk egaligining kichik va xususiy tadbirkorlik shakli korxonalarini o'z faoliyatida turli banklar bilan muomalada bo'ladilar. Bu jarayon avvalo oldingilaridan farq qilgan xolda ancha murakkab xisoblanadi, chunki oldingi jarayonlar asosan korxonalar orqali bank o'z faoliyatini olib borganligi bilan xarakterlanadi. Tadbirkorlik faoliyati shakllanishi tufayli banklar xususiy mulk egalari va kichik korxonalar faoliyati bilan bog'liq operatsiyalarni bajarishga o'z imkoniyatlarini safarbar etib boradilar.

Turli mulkchilik sharoitida respublikada kichik va xususiy tadbirkorlikni qullab-quvatlash to'g'risida 1995 yil 14 fevraldagi Vazirlar maxkamasining № 55 qarorida O'zbekiston xududidagi barcha tadbirkor banklarni kichik va xususiy tadbirkorlarga xisob schyotlarini 3 kun ichida ularni arizalari va xokimiyatda ro'yxatga olinganliklari to'g'risidagi guvohnamalari asosida boshqa keraksiz xujjatlar talab qilmay ochishlari to'g'risida ko'rsatma berilgan. Bu qaror tufayli respublikada minglab kichik va xususiy tadbirkorlik korxonalarini barpo etilishiga imkoniyat yaratilib, bu soxadagi korxonalar soni kundan-kunga ko'payib bormoqda. Shu bilan birga kichik va xususiy tadbirkorlar xorijlik mulk egalari, tadbirkorlar bilan xamkorlikda faoliyat olib boradigan bo'lsa, davlat valyuta operatsiyalari olib borishga ruxsat berdi. Respublika banklari bilan tadbirkorlar o'rtasida bo'ladigan shartnomalar, tovarlar savdosi, xizmatlar bo'yicha bo'ladigan to'lovlarni erkin konvertatsiyalashtirilgan valyutada amalga oshirish mumkin.

Tadbirkorlarni banklar bilan bo'ladigan operatsiyalarida turli erkinliklar berib qo'yilganligi shunda namoyon bo'lmoqdaki, xususiy tadbirkor o'z jamg'armasini O'zbekistonni turli banklarida o'z xisob schyotida saqlashi, kredit

va kassa operatsiyalarini bajarish xuquqiga ega xisoblanadi. Banklar bilan tadbirkorlar o'rtasidagi munosabatlarda amal qilayotgan qonunlarga va shartnomalarga asosan pul o'tkazish yo'li bilan xisob-kitoblar olib borish mumkin. Banklar tadbirkor schyotida pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar va boshqa muxim axamiyatga ega bo'lgan xujjatlarni saqlashi bilan kafolatlab beradi. Banklar tadbirkorlar va mijozlar bilan bo'ladigan operatsiyalarda pul egasi tomonidan topshiriq qog'ozi bankka kelib tushishi bilan 12-13 soat davomida keyingi operatsiyalar bajarilishi zarur.

Umuman bozor iqtisodiyoti jahondagi yirik rivojlangan mamlakatlarni muomaladagi valyutalarini mamlakat ichki bozorida harakat etishi uchun huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi. Tadbirkorlar valyuta bilan bog'lik bo'lgan faoliyatlaridan samarali foydalanib, xorij valyutasiga yangi texnika va zamonaviy texnologiya xarid qilib, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida xizmatni sifatini oshirishga, ishlab chiqarish sohasida sifatli tovarlar ishlab chiqarib, uning realizatsiyasidan katta foyda olish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bank kreditlarining roli

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarining asosiy qismini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektalri tashkil etadi. Chunki kichik korxonalar bozor sharoitiga tez moslashuvchan va kamxarjat talab qiladigan sektor xisoblanadi. Umuman ,bugungi kunda bozor iqtisodiyotining muxim talabi – kam mexnat sarflagan xolda, ko'proq va sifatli maxsulot ishlab chiqarish, kishilrning talab va extiyojlarini to'la qondirish va shu asosida foyda olishdan iborat. Bunda ishlab chiqarishni xarakatlantiruvchi kuch tadbirkorlikdir

Respublkamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektalrini qo'llab-quvvatlash xamda ularning rivojlanishi uchun barcha shart- sharoit-lar yaratilgan bo'lib,doimiy ravishda rag'batlantirish va iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida , ularga turli xil soliqlardan ozod qilish hamda imtiyozli foiz stavkalarini

qo'llagan holda bank kreditlaridan foydalanish imkoniyatlari berilgan. Lekin ularni tashkil etish sur'atlari ,muttasil rivojlanib borishi umumiy iqtisodiy hayotdagi o'zni bozor iqtisodiyotining talablariga hali to'liq javob bera olmaydi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanish yo'llarida hali to'siqlar ko'p. Bozorning naxr-navo o'zgarishiga ta'sirchaanligi, ishlab chiqarilgan maxsulotlarning sifati pastligi va boshqa siyosiy – iqtisodiy muammolar mavjudligi kredit oluvchining moliyaviy xolatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mijoz va bank o'rtasida imzolangan kreditshartnomalari har ikki tomon uchun majburiy xisoblanib, ularning o'z muddatida , to'liq bajarilishi talab etiladi. Lekin hozirgi paytda banklar kreditlarni qaytarib olishda muammolarga duch kelmoqda .bu esa o'z –o'zidan muammolarning yanada ortishiga hamda “muammoli kreditlar” yoki “sud jarayonidagi ssudalar” hisob varag'ida banklarning summalari ko'payirshiga , daromad keltiruvchi bank aktivlarining chetga tortilishiga olib keladi.

Bugungi kunga kelib , tijorat banklari kredit portfelining ma'lum bir qismini muammoli kreditlar tashkil etadi. Umuman muammoli kreditlar qanday yuzaga keladi? –degan savol tug'iladi. Muammoli kreditlar quydagi hollarda yuzaga keladi:

- Mijozning moliyaviy holatiga to'g'ri baho bermaganligi va chuqur tahlil etmaganligi
- Kreditlar ustidan etarli darajada monitoring o'rnatilmaganligi.
- Hujjatlarning to'liq talab qilinmaganligi.
- Kredit mablag'ining biznes rejada ko'rsatilgan maqsadlarga ishlatilmaganligi hamda mablag'ning xufyona o'zlashtirilishi.
- Bank xodimlari bilan o'zaro til biriktirib, kredit mablag'lari

talon-taroj qilish qibatida yuzaga keladi.

Ushbu muammoli kreditlarni bartaraf etish masalari bo'yicha respublikamizda tegishli qonuniy hujjatlar qabul qilingan. Ammo, hali bu masalalar yuzasidan muammolar mavjud. Muammolarni bartaraf etish uchun qonuniy-huquqiy bazani yanada rivojlantirib, banklarga bu masalada erkinliklar berilishi lozim. Kredit ta'minoti sifatida garovga qo'yilgan mulk kredit oluvchining hamda uning oila a'zolari ishtirokidan natoriusda shartnoma asosida rasmiylashtiriladi. Umuman,

kreditlarni 5 turga, yaxshi, standart, substandart, shubhali hamda umidsiz kredit turlariga tasniflash mumkin. Bulardan oxirgi ikkalasi to'g'risida to'xtaladigan bo'lsak, ular amaliyotda muammoli kreditlar deb qaraladi. Kamida 180 kundan kechiktirilgan kreditlar "umidsiz" va 90 kun kechiktirilgan kredit esa "shubhali" kredit deb ataladi.

Xukumatimiz tomonidan respublikada muammoli kreditlar keskin ortib ketganligi sababli, Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 4 dekabrda 422-sonli "Banklarning kreditlari bo'yicha qarzдорlik o'z vaqtida qaytarilmagan taqdirda undiruvni qarzдорning likvidli mol-mulkiga qaratish tartibini tasdiklash to'g'risida" gi Qaroriga muvofiq qarzдорning pul mablag'lari etarli bo'lmagan taqdirda, bank kredit bo'yicha qarzдорlikni qonuniy hujjatlarda belgilangan tartibda va natorial tasdiqlagan hamda yozma bitim asosida qarzдорning likvidli mol-mulki hisobiga yoki undiruvli mol-mulki hisobiga qarzni qaytarish yuzasidan o'z muljali to'g'risida yozma ravishda bildirishnoma beradi. Mijoz esa o'z navbatida 15 kundan kechikmay, bankka yozma javob berishi shart. Bunday vaziyatlarda ko'plab banklar sudma-sud yurishga to'g'ri keladi. Chunki qarzдор o'z qarzini qaytarishni kechiktirish yoki iloji bo'lsa umuman qaytarmaslik tarafdoridir. Agarda, muammoli kreditlarni undirish bo'yicha ish tug'ri yo'lga qo'yilmasa, oqibatda, buni amalga oshirish uchun juda ko'p vaqt va mablag' talab etiladi. Hozirgi kunda muammoli kreditlarni bartaraf etish bo'yicha banklar tomonidan bir necha yo'nalishlar ishlab chiqilgan. Ular:

Yuqoridagi jarayonlarning barchasini amalga oshirish ancha mushkul masala hisoblanadi. Muammoli kreditlarni bartaraf etish bo'yicha g'arb tajribasiga nazar tashlasak. Ularda mijozlarning kreditga layoqatlilikini aniqlashda "5-S" (fifth C) qoidasi qo'llaniladi.

2. Kichik biznesni kredit bilan ta'minlash shakllari

Kichik biznesning ishbilarmonlik tarkiblarini kredit bilan ta'minlash - bu ularga moliyaviy pul yoki tovar shaklidagi vositalarni ma'lum muddatga xujalik faoliyatini amalga oshirish uchun berishdir. Kredit bilan ta'minlashni quyidagi turlari mavjud:

- **Xujalik** yurituvchi sub`ektlarga pul ssudalarini yoki tovarni kapital o`rnida to`g`ridan to`g`ri berish shakli.
- **Hisob-kitob** turlaridan biri sifatida kredit bilan ta`minlash ya`ni to`lov muxlati uzaytirilganligi hisobibilan.

Bu yerda "*Kredit*" tushunchasiga keng ma`noga ega. *Birinchidan*: Kredit to`lash va foiz to`lash sharti bilan ssuda qurishida pul yoki tovar shaklida bo`lishi mumkin. Yuridik yoki jismoniy shaxslar qarzga vosita beruvchilar - kreditorlar, oluvchilar - zayomchilar deb ataladi. Kreditning *asosiy vazifasi* pul vositalarini qaytarib berish sharti bilan korxonalar, tashkilotlar, tarmoqlar va nohiyalar orasida taqsimlash va vaqtincha bo`sh pul mablag`larini samarali ishlatishidan iboratdir. Kreditni boshqa vazifasi bu haqiqiy pullarni kredit pullarga (banknotlar) va kredit operatsiyalariga (narx pulsiz hisob-kitobga) almashtirishdan iborat. *Ikkinchidan*: Kredit o`zini ssuda kapitali harakati shaklida namoyon etadi. Pul eki tovar shaklidagi ssuda qaytarilishi va to`lovli sharti bilan kreditor va zayomchi orasidagi iqtisodiy munosabatni aks ettiradi. Kichik biznesda kredit bilan ta`minlash keng shakllarda tasavvur etiladi bu erda quyidagi kreditlar ishlatiladi: tijorat, bank, davlat, iste`molchi, xalkaro. Ularning hammasi kredit berilish muddatiga qarab keskin muddatli (biryilgacha), o`rta muddatli (bir yildan uch yilgacha) va uzoq muddatli (uch yildan ortiq) bo`lishi mumkin.

Tijorat krediti - tovar shaklida (beriluvchi) sotuvchilar tomonidan xaridorlarga beriluvchi kredit bo`lib sotilgan tovarni qiymatini orqaroksurishdan iboratdir. Natijada hisob – kitoblar veksel yoki ochiq hisob bilan amalga oshiriladi. Birinchi holatda xaridor tovar hujjatlarini olganidan so`ng o`tkazilish sotuvchi tomonidan qo`yilgan veksel`ni (trattani) talaffuz etadi yoki oddiy veksel rasmiylashtiradi . Ikkinchi holatda sotuvchi xaridorning qarz majburiyatlarini olmaydi va qarz bo`yicha hisob ochadi, qarzni uzish davriy to`lovlar sifatida qisqa muddatlarda (1-2-oy) amalga oshiriladi.

Tijorat kreditiga bo`lgan zarurat kapitalni ishlatish va muomila vaqtini bir-biriga to`g`ri kelmasligi natijasida kelib chiqadi. Bu yerda tovarni kreditga sotish ishlab chiqarish jarayonning uzluksizligiga yordamlashadi, kapitalni aylanishini

tezlashishini va foydani ko'payishini ta'minlaydi Ushbu shakldagi kredit odatda qisqa muddatli bo'ladi.

Bank krediti ishbilarmon va korxonalarga pul ssudasi ko'rinishida beriladi.

Bank ssudasi – bu korxona tashkilotlarni, alohida fuqarolarning vaqtincha bo'sh vositalari bo'ib bank tomonidan shartnoma asosida ularning roziligi bilan jalb qilinadi va ssuda fondi tashkil bo'ladi. Kredit olish uchun kredit oluvchi va zayomchi tomonidan kredit shartnomasi tuziladi, o'z ichiga quydagilarni oladi. Kredit turi, miqdori, uning berilish tartibi va muddati, kredit berish sharti, foiz to'lovini miqdori, har ikkala tomon javobgarligi, kreditor va zayomchilar to'g'risidagi ma'lumotlar.

Kichik biznes taraqqiyoti uchun *Davlat krediti* davlat byudjetidan eng muhimi zamonaviy ishbilarmonlik loyihalarini amalga oshirish bo'yicha tasdiqlangan dasturlar asosida beriladi.

Iste'molchi kredit – bu kredit shaklida qarz oluvchi sifatida yuridik shaxs, qarz beruvchi sifatida kredit idorasi, korxona va tashkilot chiqishi mumkin. Bu kredit shakli xalqni iste'mol talabini qondirish vositasi sifatida xizmat qiladi va pul yoki tovar shaklida bo'lishi mumkin.

Xalqaro kredit – bu xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasi bo'lib u turli davlatlar kreditorlar va qarz oluvchilari orasida ssuda berish, ishlatish va uni uzish bo'yicha foiz to'lash bilan amalga oshiriladi. Bu turdagi kredit kichik biznesni tarakqiyot topshirish uchun davlatlararo banklar va firmalar tomonidan xalqaro yordam shaklida beriladi. Xalqaro kredit o'lchami va uni berish sharti kredit beruvchi va oluvchilar o'rtasidagi kredit shartnomasida o'z aksini topadi. Firmaning nuqtai nazarida berish va ta'minlashda quyidagi kreditlar bishimumkin. Tovar, valyuta, ta'minlashgan (tovar, tijorathujjatlaribilanvaboshkakiymatlarbilan) vata'min etilmagan (bank) kreditlari, qarz oluvchilari bo'yicha kreditlar *shaxsiy*, *davlat* va *moliyaviy* bo'lishi mumkin. Kreditni asosiy shartli hisob-kitob turi bo'lib (to'lash muddati uzaytirilgan hisob) firma krediti, veksel (hisobli) va faktorining hisoblanadi.

Firma krediti – bu kredit berish shaklida mol beruvchi va sotuvchi to'lash muddati uzaytirilgan kreditni xaridorga beradi. Bu kabi kredit shakllining birdan-


bir misoli mahsulotni iste'molchiga avans berishdir, avans beruvchiga shartnomaga qo'l qo'yilgandan so'ng o'tkaziladi. Veksel krediti - bu vekselni bank tomonidan sotib olish (hisobni) veksel egasidan to'lash muddati kelmasdan sotib olishdir, ya'ni veksel egasi bankdan muddatidan ilgari veksel'da ko'rsatilgan pul miqdorini, tijorat to'lovlarini, hisob to'lovini va boshqa xarajatlarni ayirgandan keyingisini oladi.

Faktoring – bu aylanuvchi vositalarni kredit bilan ta'minlashda o'rtada turuvchining faoliyati turadir, o'rtada turuvchi kompaniya (bank) ma'lum to'lov evaziga ishbilarmonlar tarkibidan xaridorlardan uning hisobiga olinadigan pul mablag'ini olish huquqiga ega bo'ladi (debitorlik qarzining kassaga qo'shish huquqi). Shu bilan birga o'rtada turuvchi mijozni aylanuvchi vositasini kredit bilan ta'minlaydi va uning kredit va valyuta tavakkalchiligini o'z zimmasiga oladi, o'rtada turuvchi tovar sotuvchining o'zaro munosabatlari faktoring bo'yicha shartnoma bilan tartibga solinadi.

Ochiq hisob bo'yicha kredi bilan ta'minlash- bu sotuvchini doimiy xaridoriga ta'minlatmasdan va tez foiz to'lamasdan to'lov muddati uzaytirilgan shakldagi kreditidir. Sotuvchi xaridorga tovarni uning manzilgoxiga tovar taqsimlash xujjatlari bilan qarz miqdorini xaridor shartnomada ko'rilgan muddatlarda o'z qarzini ochiq hisob bo'yicha uzib boradi.

Overdraft – qisqa muddatli kreditlash shakli bo'lib banklar amaliyotida ishlatiladi. U Angliyada paydo bo'ladi. Overdafting mazmuni shundan iboratki odatda bankning ishonchli mijoziga ma'lum chegarada cheklar bilan qarz to'lash xuquqi beriladi. Bu kabi operatsiya natijasida manfiy balans bunyod bo'ladi, ya'ni debitorlik saldosi - (mijozini bankga qarzi). Bank va mijoz o'zaro shartnoma tuzib unda overdraftning eng katta miqdori, kredit berish sharti, uni qaytarish tartibi va overdraft uchun foiz miqdori belgilanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga yo`naltirilgan kreditlar miqdori



Manba: Davlat statistika bosh boshqarmasi.

So`nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy jihatdan qo`llab-quvvatlashtadbirlari xamkuchaytirildi. Xususan, 2009 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun 1851,7 milliard so`m kredit ajratilgan bo`lsa, 2010 yilda bu ko`rsatkich 2690,2 milliard so`mni tashkil etadi.

Kichik biznes korxonalarini soliqqa tortish, ulardan olinadigan soliq turlari, qoidalari va soliq imtiyozlari.

Barcha mulk formalaridan qat`iy nazar korxonalar Uzbekiston Respublikasining «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to`grisidagi Qonunga (1991 yil 15 fevral`) va Vazirlar Mahkamasining «Xalq iste`moli mollari ishlab chiqarishni rag`batlantirish maqsadida soliq tizimini takomillashtirish to`g`risida»gi Qarori (1994 yil 24 fevral`, № 93) muvofiq davlat va mahalliy byudjetlarga to`lanadigan soliqlar tarzidagi daromadlar manbalari belgilab berilgan. Bu soliqlarni joriy etishdan ko`zlangan maqsad davlat ijtimoiy kafolatlarining tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishdan, tabiiy boyliklardan tejab-tergab foydalanishni va atrof muhitni muhofaza etishni ra`batlantirishdan iboratdir.

Soliq solish ob`ekti, korxonaning hisobot davridagi *yalp idaromadi* bo`lib hisoblanadi.

Soliq solish bazasi bo`lib, soliq to`lovchi deb hisoblangan korxonalarga soliq solish maqsadlarida moddiy va unga tenglashtirilgan o`zga xarajatlar, shuningdek majburiy to`lovlar hisoblanadi.

Tadbirkor korxonalardan hisoblab chiqilgan soliq solish bazasiga muvofiq soliq stavkalari quyidagi tarzda belgilanadi :

1) mulkchilikning barcha shaklidagi korxonalarning daromadlariga 17 foiz foyda solig'i to`lovchilar 36 foiz stavka bo'yicha soliq solinadi;

2) video salonlar, kim oshdi savdolari, kazinolar, pul yutug'i chiqadigan o'yin avtomatlari, davlatga qarashli bo'lmagan idoralar o'tkazadigan lotereya o'yinlaridan va ommaviy kontsert-tomosha tadbirlari o'tkazishdan olinadigan daromadlarga 60 foiz stavka bo'yicha soliq solinadi;

3) chet el kapitalining ulushi ustav fondining 30 foizidan kamni tashkil etgan qo'shma korxonalarning daromadlariga ustav fondida chet el kapitalining



ulushi 30 foizdan ko'p bo'lgan korxonalarining, shuningdek chet el korxonalarining, ular filiallarining, vakolatxonalarining va shu'ba korxonalarining daromadlariga esa 10 foiz stavka bo'yicha solinadi;

Ustav fondida chet el kapitali bo'lgan qo'shma korxonalar xorijiy qatnashchilarining daromadlari chet elga o'tkazilayotganda, basharti, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida o'zga tartib belgilanmagan bo'lsa, ularga 15 foiz xajmda soliq solinishi belgilangan.

Daromadlar chet elga o'tkazilayotganda soliq to'lovining summasi o'tkazilayotgan daromad valyutasida to'lanadi.

4) korxonaning aktsiyalar bo'yicha olingan dividendlardan tushadigan daromadiga xamda o'zga korxonalarining ustav fondiga kiritilgan kapitaldan olgan boshqa daromadlariga 15 foiz stavka bo'yicha soliq solish tartiblari belgilangan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka belgilanga soliq stavkasi



Manba: Davlat statistika bosh boshqarmasi.

Ushbu rasmdagi ma'lumotlardan ko`rinadiki, 1996-2011 yillar mobaynida kichik biznes sub`ektlari uchun belgilangan soliq stavkalari 38 foizdan 6 foizga yoki 6,3 martaga qisqargan.

Kelgusida tarmoq yo`nalishlariga ko`ra, kichik biznes sub`ektlari uchun quyidagi soliq imtiyozlari belgilangan:

- 2014 yilning 1 yanvarigacha yangidan tashkil etilayotgan ta'mirlash-qurilish tashkilotlari soliqlarning barcha turlaridan va ayrim majburiy ajratmalarni to'lashdan ozod qilingan;

- 2012 yilning 1 yanvarigacha go`sht va sutni qayta ishlashga ixtisoslashgan mikrofirm va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 50 foizga kamaytirilgan, chetdan olib kelinadigan texnologiya uskunalari bojxona to'lovlaridan ozod qilingan;

- 2012 yilning 1 yanvarigacha 15 xildagi nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan mikrofirm va kichik korxonalar foyda solig'i, mulksolirivayagonasolix to'lovlaridanozod qilingan;

- 2012 yilning 1 yanvarigacha Respublika yo`l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan, ishlab chiqarishda foydalaniladigan uskunalarni import qilishda bojxona to'lovlaridan ozod qilingan.

Kichik biznes korxonalarida audit va auditorlik taftishini o'tkazish

Tadbirkorlarni iqtisodiy faoliyat yuritishlarida, moliyaviy va buxgalteriya hisob-kitoblarini to'g'ri amalga oshirishlarida auditorlik firmalari ham muhim rol o'ynaydi. Auditorlik firamlari bozor infra tuzilmasining eng muhim unsurlaridan biridir, ular mulkdorlar va davlatning mulkiy manfaatlarini himoya qilish maksadida mustakil moliyaviy nazoratni amalga oshiradi .

Uzbekistonda audit O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'grisida»gi qonuni asosida amalga oshiriladi.

Audit – xujalik yurituvchi sub`ektlarni mustakil eks-
Pertiza va moliyaviy hisobotini taxlil etuvchi
tashkilotdir, buni shunga vakilkilinga shaxs-
lar - auditorlar (auditorlik firmalari) baja-
radi.

Auditning asosiy maqsadi - moliyaviy va xujalik operatsiyalarining to'g'riligini va ularning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va boshqa me'yoriy hujjatlariga nechog'lik mosligini aniqlashdan, bularning to'la-tukisligi, anik-ravshanligi, buxgalter hisobi yoki boshqa moliyaviy hisob yuritishga qo'shilayotgan talablarga nechog'lik monandligini aniqlashdan iboratdir. Audit tarkibiga yana konsalting, ya'ni mijoz bilan shartnoma tuzib, xizmatlar ko'rastish ham kiradi.

Auditrolik faoliyati xujalik yurituvchi sub`ektlarning faoliyati ustidan maxsus vakolat olgan davlat idoralarining nazorati o'rnini bosmaydi.

Auditning asosiy "xarakatlanuvchi shaxsi" auditor va auditorlik firmasidir.

Auditor belgilangan tartibda auditorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini olgan hamda auditorlik kasbi ro'yxatiga kiritilgan mutaxassisdir.

Auditorlik firmasi-yuridik va jismoniy shaxs tomonidan tuzilib, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan ustaviga kura ushbu firmaga auditorlik xizmati kursatish bilan shug'ullanadigan tashkilot.

Auditorlik firmalari kichik korxonalar, ma'suliyati cheklangan jamiyatlar va boshqa korxonalarning tashkiliy xuquqiy shakllarida ochilishi mumkin, ochiq turdagi aktsiyadorlik jamiyatlari bundan mustasno.

Quyidagilarga auditorlik tekshiruvini o'tkazish ta'qiqlanadi:

- tekshirilayotgan xujalik yurituvchi sub`ektning raxbarlari va boshqa mansabdor shaxslari bilan yaqin qarindosh bo'lgan shaxsga;

- tekshirilayotgan xujalik yurituvchi sub`ektda shaxsiy mulkiy manfaatlari bo`lgan shaxsga;
- xujalik yurituvchi sub`ektning raxbarlariga, muassasalariga yoki mulkdorlariga;
- tekshirilayotgan xujalik yurituvchi sub`ekt yoki uning filiallari xodimiga ;
- davlat xokimiyati va boshqaruvi idoralarining mansabdor shaxslariga;
- kreditorlar, investorlar va boshqa manfaatdor shaxslarga.

Auditorlar va auditorlik firmalari davlat ro`yxatidan o`tib, litsenziya olganlaridan keyin faoliyat boshlaydi.

Auditorlar va auditorlik firmalari qonunda belgilab qo`yilgan tartibda O`zbekiston Respublikasining Adliya vazirligida Davlat ro`yxatidan o`tadi.

Auditorlik faoliyati bilan shugullanish huquqi uchun litsenziya davlat ro`yxatidan o`tgandan keyin beriladi.

Auditorni mijoz bilan shartnoma tuzgan auditorlik firmasi xo`jalik yurituvchi sub`ekt mulkdorlari bilan kelishilgan xolda tayinlanadi.

Xo`jalik yurituvchi sub`ekt mulkdorlari qarori bilan yoki auditorni tayinlagan yuridik shaxsning qaroriga ko`ra auditor chiqarib olinishi mumkin, auditor bu xaqda barvaqt yozma tarzda, uning xizmatidan voz kechish sabablarini ko`rsatib xabardor qilinadi.

Tekshiruv vaqtida yoki buyurtmaga ko`ra, boshqa ishlar qilinayotganida xizmatdan voz kechilsa, xujalik yurituvchi mulkdor auditor xizmatiga xaq to`lashi shart.

Surishtiruv organi, prokuror, tergovchi va sud topshirig`I bilan auditorlik tekshiruvi o`tkazilsa, xarajatlar tekshirilayotgan xujalik sub`ekti zimmasiga tushadi, uning qo`lida yetarli mablag` bo`lmasa, tekshiruvni tayinlagan organ zimmasiga tushadi.

Mabodo xujalik yurituvchi sub`ekt ko`lida zarur mablag` bo`lmasa- yu tekshiruv xarajatlarini to`lashdan bo`yin tovlasa, prokuror auditor yoki auditorlik firmasining mulkiy manfaatlarini ximoya qilib tegishli sudga murojaat qilishi shart.

Xo'jalik yuritish sub`ektining xabarlarini va boshqa mansabdor shaxslari auditorning talabi bilan quyidagilarni bajarishi shart:

- moliyaviy-xujalik faoliyatiga daxldor xujjatlarni berish;
- og'zaki yoki yozma tarzda zarur izoxlar berish;
- tekshirilayotgan ob`ektning moliyaviy-xujalik faoliyatini sifati ekspertiza qilish uchun boshqa zarur shart-sharoitlarni yaratish.

«Auditorlik faoliyati xakidagi» Qonun va boshqa qonun xujjatlarining qoidalarini auditorlik tekshiruvi vaqtida buzganlik uchun auditor va auditorlik firmasi javobgar bo'ladi:

- * O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan mulkiy va ma'muriy javobgarlik;

Litsenziya xuquqini to'xtatib ko'yish yoki auditorlik faoliyati bilan shug'ullanish xuquqini beradigan litsenziyadan maxrum etishgacha (litsenziya bergan organ qaroriga muvofiq) bo'lgan intizomiy jazolar berish.

Auditor faoliyatini tartibga solib turish uchun qonunchilikda auditorlar palatasini ochish nazarda tutilgan.

O'zbekistondagi aksariyat auditorlik firmalarini auditorlar o'zlari tashabbuskor bo'lib tuzgan, ammo mustaqil audit o'tkazish uchun ularning soni yetarli emas. Bu muammoni xal etish uchun Davlat mulki qo'mitasi tashabbusi bilan 1996 yilning may oyida qimmatli qog'ozlar bozori qatnashchilariga maslaxat-auditorlik va axborot xizmati ko'rsatish uchun maxsus agentlik - «Konsauditinform» tashkil etildi.

Tezorada barcha korxonalar ish yuritadigan bozor iqtisodiyoti shart-sharoitlari favqulotda qattiq va, binobarin, xam mamlakat ichidagi, xam chet el raqobatchi korxonalari mavjud bo'lgan bir paytda samarali, foydali va faoliyat yo'llari va vositalarini tug'ri belgilash qobiliyatining ahamiyati oshadi. Bu auditorlarga qo'shimcha vazifalar yuklaydi. Ular korxonalarning moliyaviy axvoli va uning keyingi rivoji istiqbollari tug'ri baxolashlari zarur.

Albatta, auditorlik tashkilotida biron-bir tarmoqda tijorat faoliyatining xususiyatlari bilan yaxshi tanish bo'lgan, moliyaviy ahvolni tahlil qilib, tekshirilayotgankorxonavamuassasaning xisob-kitob xujjatlari bo'yicha malakali

xulosa berishga qobiliyatli mutaxassislar bo'lmashligi mumkin. Shu tufayli tashkilotlar odatda o'z kuch g'ayratlarini o'zlari ishda chinakamiga yordam bera olishlariga qodir bo'lgan mijoz-korxonalarga jamlaydilar.

Shunday qilib, audit standartlari avvalo mazkur xizmat turini o'tkazishning majburiy shartlari, xususan, malakatalablari, tayyorgarlik ishi, auditor tekshirishlarini bevosita o'tkazish va yakunlovchi bosqich-auditorlik tekshirish akti hamda auditorlik xulosasini tuzishga daxldor bo'lishi kerak.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yaratishning huquqiy asoslari

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan keyin milliy itisodiyotni mustahkamlashuni har tamonlama rivojlantirish yo'lida dadil odimladi. Respublikasi Prezidenti mamlakatimiz obru - e'tiborini xalqaro miq'yosda ko'tarish, chet el investitsiyasiga keng yo'l ochish, xususiy tadbirkorlikni qo'llab – quvvatlash borasida katta ishlarni amalga oshirmoqdalar. Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida ko'pgina muammolarni birinchi marta hal etishga to'g'ri kelmoqda. Keyingi yillarda qabul qilingan qaror va farmonlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. **Kichik biznes faoliyatini yaratish va rivojlantirish quyidagi asosiy normativ hujjatlarni bilan tartibga solinadi:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 21 yanvardagi «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, rivojlantirish chora - tadbirlari to'g'risida»; 1994 yil 15 martdagi «O'zbekiston Respublikasida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning ustivor yo'nalishlari to'g'risida», «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasining 1995 yil 21 dekabr qonuni; 1995 yil 5 yanvardagi «Xususiy tadbirkorlikda tashabbus ko'rsatish va uni rag'batlantirish to'g'risida»gi Farmon; «Kichik va o'rtacha tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirishning qo'shimcha choralari to'g'risida»gi 31 yanvar 1997 y. Farmoni; «Xususiy tadbirkorlikda tashabbus ko'rsatishning ba'zi chora – tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni (№55); «Xususiy tadbirkorlik kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish choralari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 apreldagi VII - 1978 t.r – li Farmoni; 2001 yil 22

avgustdagi “Tadbirkorlik sub`ektlarini davlat ro`yxatidan o`tkazish va hisobga qo`yish tizimini taomillashtirish to`g`risida”gi 347 t. r. Qarori va boshqa qonuniy xujjatlar.

Tadbirkorlikka, shu jumladan kichik va xususiy tadbirkorlikka bag`ishlangan normativ – xuquqiy hujjatlar O`zbekistonda yetarli miqdorda qabul qilingan. «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to`g`risida» gi O`zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi (25 may 2000 yil). Lekin xususiy biznesni amalga oshirish jarayonida qonunchilikda yangi muammolar paydo bo`la boshladi.

Qonunlarni ko`pchiligida xususiy va kichik biznesni davlat tomonidan qo`llab – kuvvatlanishi choralari, shart - sharoitlari, shakllari aks etdirilgan.

Tadbirkorlikni rivojlantirish fondi yaratilgan. Bulardan avval shuning uchun biz bozor tizimini, baho va raqobat omilini, raqobatni bozor mexanizmi tizimini yaxshi bilishimiz zarur*.

*Kichik va xususiy korxonalarni yaratishning va ro`yxatdan o`tkazishning **umumiy shartlari va printsiplari** korxona to`g`risidagi, aksioner jamiyatlari to`g`risidagi, kichik va xususiy korxonalarni rag`batlantirish to`g`risidagi, tadbirkorlik to`g`risidagi, “Tadbirkorlik sub`ektlarini davlat ro`yxatidan o`tkazish va hisobga qo`yish tizimini takomillashtirish to`g`risida”gi 2001 yil 22 avgustdagi 347 t.r. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi Qarori va boshqa Qonuniy xujjatlar asosida tartibga solinadi.

*** Bu to`g`rida Kempbell R. Makkonell, Stenli L. Bryu "Ekonomiks" 1 - kitob, 5 bob 81 bettda batafsil fikrlar berilgan.**

Farmonlar/huquqiy asoslari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlis ma`ruzasida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha bir qator yangi vazifalar qo'yilgan.

1.Soliqqa tortish tizimida qo'shimcha imtiyozlar va preferensiyalar berish, soliq qonunchiligining barqarorligini ta`minlash, soliqlarni xisoblash va to'lashning soddalashtirilgan usullarini ishlab chiqish.

2.Faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanish uchun ruxsat berish tadbirlarini qisqartirish va soddalashtirish, kichik biznesni ariza berish asosida ro'yxatga olish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish.

3.Yirik korxonalarning buyurtmalari asosida mayda butlovchi qismlarni ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan yangi kichik korxonalar tashkil etish, xonadonlarda mayda xususiy sexlar ochishni rag'batlantirish.

4.Kichik korxonalarda ishlamaydigan, ayniqsa qishloq joylarda kasanachilik bilan shug'ullanadigan fuqarolar uchun moddiy-texnik ta'minot bo'yicha xizmat ko'rsatadigan va ular tomonidan tayyorlangan maxsulotlarni sotishga ko'maklashadigan tuzilmalar yaratish lozim.

Mamlakatimiz rahbariyati bu vazifalar bajarilishini ta'minlash uchun bir qator qonunchilik xujjatlari qabul qilgan. Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish bo'yicha qabul qilgan meyoriy va xuquqiy xujjatlarning dastlabkisi 1994 yil 21 yanvarda qabul qilingan "Iqtisodiy islohatlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk ximoyasini va tadbirkorlikni rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni bo'ldi. Shundan so'ng 1995 yil dekabrda "Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. 1998 yil 15 aprelda Vazirlar Maxkamasining "Soliq solishning soddalashtirilgan tizimiga o'tgan mikrofirmalar va kichik korxonalarga soliq solish tartibi to'g'risida"gi 159 sonli qarori qabul qilindi.

Bozor isloxlari chuqurlashish jarayonining xozirgi bosqichi talablarini e'tiborga olib, 2005 yil iyun oyida kichik biznes va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha bir qator qonuniy xujjatlar qabul qilindi.

1.O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni

2.O'zbekiston Respublikasining "Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida"gi qonuni

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 iyundagi "Tadbirkorlik sub'yektlarini xuquqiy ximoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.

4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 iyundagi "Tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan taqdim etiladigan xisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarliknu kuchaytirish to'g'risida"gi qarori.

5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 20 iyundagi "Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gifarmoni.

6.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'yektlarining xo'jalik soxasidagi xuquqbuzarliklari uchun moliyaviy javobgarlikni erkinlashtirish to'g'risida"gi 2005 yil 24 iyundagi farmoni kabi xuquqiy xujjatlar.

Yuqoridagi xujjatlarda kichik biznes sub'yektlariga beriladigan kafllik va imtiyozlar ko'rsatib o'tilgan: Davlat ularning xuquqlarini ximoya qilish, erkin raqobat uchun sharoit yaratib berish, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar moddiy, mexnat, moliyaviy va boshqa resurslardan foydalanishga teng xuquqlarni ta'minlash, Respublika va maxalliy organlar tomonidan kichik biznes bo'yicha qabul qilingan barcha meyoriy xujjatlarni xuquqiy ekspertizadan o'tkazishni kafllab berdi.

Kichik korxonalarni zamonaviy texnologiya va yangi texnika bilan qurollantirish uchun chet el kredit yo'nalishlaridan imtiyozli valyuta kreditlari olish imkoni paydo bo'ldi. 2000 yilning 21 martida qabul qilingan "Bank tizimini yanada liberallashtirish va islox qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezidentimiz farmoniga binoan banklarning o'z mablag'lari xisobiga kichik biznesni kreditlashni rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar amaliyotga tadbiiq etila boshladi. Bu xolda tijorat banklari 5 yil muddatga daromad (foyda) solig'idan ozod etilishi ko'zda tutilgan.

Yuqoridagilardan tashqari soliq qonunchiligi bo'yicha kichik biznesni rivojlantirishni rag'batlantiruvchi bir qator xujjatlar qabul qilingan. Masalan, yangi tashkil etilgan korxonalar, shu jumladan kichik korxonalar xam o'z faoliyatining dastlabki 2 yilida mulk solig'idan ozod etiladi (Soliq kodeksi 9 moddasi 2 qism). 1995 yil 25 dekabrda qabul qilingan "Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga binoan "agar soliq qonunchiligiga kiritilgan tadbirkorlik sub'yektlari sharoitini

yomonlashtirilsa, keyingi 2 yil davomida ular davlat ro'yxatidan o'tayotgan paytda amalda bo'lgan qonunchilik asosida to'lashni davom ettiradilar".

II. BOB:KICHIKBIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MASALALARINI IQTISODIY FANLARDA O'QITISH USLUBIYOTI.

2.1 O'z biznesingizni yarating kursini ahamiyati

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy ijtimoiy isloxlarning tub negizini tadbirkorlik, omilkorlik va ishbilarmonlik xislatlarisiz tasavvur etish qiyin. Erkin bozor munosabatlarining keng ravnaq topishi kishilar hayotida, ularning turmush tarzida, ma'naviy va hayotiy ko'nikmalarida namoyon bo'lmoqda. Hozirgi vaqtda respublikamiz fuqorolari rivojlangan Evropa davlatlari, AQSh, Yaponiya kabi davlatlarning boy amaliy tajribasi xususida etarli axborotga ega bo'lib bormoqdalar.

Respublikada iqtisodiy isloxlarni yanada chuqurlashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning jarayonlarini tobora avj oldirish, shuningdek tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab quvatlashni ta'minlash maqsadida: O'zR-sining Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish Qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi xuzuridagi davlat mulki jamg'armasi negizida O'zbekiston Respublikasi davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat Qo'mitasi tashkil etilgan. O'zbekistonda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlanishi –raqobatchilikni rivojlanishiga iste'mol bozorini tovarlar va xizmat ishlari bilan to'ldirishga yangi ish joylarini yaratish, katta miqdordagi mulk egalari va tadbirkorlarni shakllanishiga xizmat qiluvchi **Respublikada o'tkazilayotgan iqtisodiy isloxlarning eng muxim yo'nalishlaridan biridir.** Tadbirkorlikni qo'llab quvvatlanishi nafaqat iqtisodiyotni muttasil rivojlanishi, ho'jalik aloqalarini tuzatish, raqobatni rivojlantirish va iste'mol bozorini to'ldirish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy maqsadlarni ta'minlashi zarur.

Bulardan tashqari bunday davlat yordami iqtisodiy siyosiy vazifalarni xal etishi respublikaning barcha xududlarida siyosiy mo''tadillikni mustaxkamlashi, tadbirkorlik faoliyatiga tegishli bo'lgan ijobiy ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishi, **unga axolining aktiv qismini jalb etishi ishsizlikni, inflyatsiya va boshqa negativ salbiy ijtimoiy xolatlarni oldini olishi lozim.**

Bulardan ko'rinib turibdiki kichik biznes va tadbirkorlik fanini o'qitilishi davr talabining taqozosi, bozor munosabatlariga o'tishning ob'ektiv zaruriyatidan kelib chiqqan. Shu tufayli bu fanni o'qish, o'rganish yoshlarimizni, talabalarni va shunday faoliyat turi bilan shug'ulanuvchilarni

bilimini oshiradi, to'ldiradi, ularning tadbirkorlik sohasidagi qobiliyati, tashabbusi va foydali xatti - xarakatlarini oshiradi. **Demak, fanning maqsadi** – zamonaviy biznes yo'nalishlarini taxlil qilish, o'rganish, uning rivojini ta'minlash yo'llarini ko'rsatish va unga taa'luqli bo'lgan nazariy bilimlar bilan, biznes sohasida qo'lga kiritilgan tajriba va yutuqlar bilan tanishtirish, ularni o'rganish xisoblanadi, shulardan kelib chiqib, **fanning vazifasi** - konkret firma va korxonalarni rivojlantirish darajasini o'rganish, istiqbollarini ko'rsatish, undagi xodisa va jarayonlarini taxlil qilish, ijobiy tajribalarini O'zbekiston Respublikasi sharoitida qo'llash imkoniyatlarini aniqlashdan iboratdir. Hodisa va jarayonlarni taxlil qilish rakobatchilik sharoitida amal qilayotgan xo'jaliklarning xatti-xarakatlarini foydali bo'lish yo'llarini o'rgatish, bu soxadagi nazariy va amaliy bilimlar bilan talabalarni kurollantirishdan iboratdir. **Bulardan fanning mohiyati yoki predmeti kelib chiqadi.**

Kichik biznes va tadbirkorlik **fanining o'rganish ob'ekti** bo'lib nodavlat mulk shakllariga asoslangan ishlab chiqarish jarayonidagi munosabatlar va resurslarni taksimlanishi, ulardan foydalanishni tashkil etish, va pirovard natijada iste'mol bozorini tovarlar bilan to'ldirib maksimal foydaga erishish yo'llarini topish xisoblanadi. Albatta foydaga erishish uchun birinchi galda kimga nima ishlab chiqarish zarurligi to'g'risida bir karorga kelish zarur.

Fanni o'rganish ob'ekti bo'lib - firma yoki korxonalar xisoblanadi. Firmalarning faoliyat yuritish muxitini taxlili asosida o'sish imkoniyatlarini tanlash, rivojlanish strategiyasini belgilash va uni rejalashtirishni tashkil etish xamda boshka strategik ahamiyatga molik bo'lgan savollar va muammolarga javob berish xam ushbu fanning ob'ektlari jumlasiga kiradi.

Fanni o'rganishda biznesning nazariy va amaliy tomonlarini bog'lab olib borish zarur. Biznes soxasidagi bilimlarni kengaytirish, takomillashtirish uchun AKSh, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi iqtisodiy rivojlangan davlatlarning mashxur firmalari faoliyatidan va to'plagan tajribalaridan misollar keltirib o'rganiladi.

Xozirgi vaqtda biznesni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan fanlar va soxalar toboro kengayib bormokda. Ular: «Bozor iqtisodiyoti asoslari», «Biznes

asoslari», «Biznesni boshqarish», «Xalkaro biznes», «Biznes etikasi», «Mikroiqtisodiyot», «Makroiqtisodiyot asoslari», «Iktisodiyot nazariyasi», «Mikroiqtisodiy statistika» «Makroiqtisodiy statistika», «Bank statistikasi», «Korxona iqtisodiyoti» «Mehnat iqtisodiyoti va sotsologiyasi» va boshka fanlar. Bir-biriga tutash, bog'liq fanlar soxasidagi bilimlarni egallash, kichik biznes va tadbirkorlik fanini chukur egallashga xizmat kiladi. Bunda bir kator asosiy tushunchalar va kabul etilgan umumiy iboralar bilan ish yuritiladi, ularni moxiyatini bilish, oydinlashtirish muxim axamiyat kasb etadi. Bunday iboralar, masalan, biznes, marketing, menejment, bozor, bozor iqtisodiyoti, bozor mexanizmi, rakobat, bozor davri, xarajatning foydaliligi, bozor muvozanati, maxsulot differentsiatsiyasi, bozor infrastrukturasi, tovar, baxo talab, taklif, talab va taklif muvozanati, umumiy bozor talabi, izokvanta, izokosta, pirovard xarajatlar, pirovard foydalilik, investitsiya, multiplikator, foyda, iktisodiy foyda, normal foyda, ichki va tashki xarajatlar, kontsern, konsortsium korporatsiya, firmalar ularning «foydali xarakati» va boshkalar. Shuning uchun ushbu fanni o'rganishda xam albatta bozor iktisodiyotiga bag'ishlangan lug'atlardan foydalanish zarur bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi sharoitida qo'llash imkoniyatlarini aniqlashdan iboratdir. Hodisa va jarayonlarni taxlil qilish raqobatchilik sharoitida amal qilayotgan xo'jaliklarning xatti – xarakatlarini foydali bo'lish yo'llarini o'rgatish, bu sohadagi nazariy va amaliy bilimlar bilan talabalarni qurollantirishdan iboratdir. Bulardan fanning moxiyati yoki predmeti kelib chiqadi.

Kichik biznes va tadbirkorlik fanining o'rganish ob'ekti bo'lib nodavlat mulk shakllariga asoslangan ishlab chiqarish jarayonidagi munosabatlar va resurslarni taqsimlanishi, ulardan foydalanishni tashkil etish, va pirovard natijada iste'mol bozorini tovarlar bilan to'ldirib maksimal foydaga erishish yo'llarini topish xisoblanadi. Albatta foydaga erishish uchun birinchi galda kimga nima ishlab chiqarish zarurligi to'g'risida bir qarorga kelish zarur.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali iqtisodiy va ijtimoiy sohada ijobiy natijalarga erishish ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi. Bu

yo`nalishda 2011 yilda "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik"ga bag'ishlangan dasturni qabul qilinishi sohani rivojlantirishda muhim omil bo`lib hisoblanadi.

Respublikamizda iqtisodiy islohotlarni izchillik bilan amalga oshirilishi natijasida bozor iqtisodiyotiga asoslangan yangi iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar shakllanib, xususiy mulk va kichik biznesning o`rni va ahamiyati tobora mustahkamlanmoqda. Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlarining hissasiga mamlakat yalpi ichki mahsulotining 53 %, ish bilan band bo`lganlarning 74 %iga to`g`ri kelmoqda.

Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashning ishonchli tayanchi bo`lgan mulkdorlar sinfini shakllantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining o`rni kattadir. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov "... kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti tarkibida hal qiluvchi tarmoqqa, ijtimoiy faol aholimizning katta qismini qamrab olgan sohaga aylandi. hozirgi vaqtda ish bilan band aholimizning 74 foizidan ortig`i aynan shu sohada mehnat qilayotgani buning yaqqol tasdiqidir. Birgina 2011 yilda respublikamizda yaratilgan qariyb bir millionga yaqini ish o`rinlarini 64 foizi shu sohaga to`g`ri keladi. Kichik biznes subektlari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni sotish hajmi 2011 yilda 600 milliard so`mni tashkil etgani, zarur xom ashyo resurslarini qo`shib hisoblaganda, bu ko`rsatkich 2 trillion 800 milliard so`mdan oshdi.

SHuning uchun ham bu soha uchun yangi imkoniyat, imtiyoz va preferensiyalar yaratib berish va uning rivojini yangi bosqichga ko`tarish masalalariga katta ahamiyat berilmoqda" deb ta`kidlaganlar .

O'Z BIZNESINBGIZNI YARATING

**KICHIK BIZNES VA XUXSUSIY
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI
TASHKIL ETISH.**

**TADBIRKORLIKNI BIZNESNI
YURITISHNING MOLIYALASHTIRISH
MANBALARI**

**TADBIRKORLIKNI BIZNISNI
YURITISHNING ME'YORIY HUQUQIY
ASOSLARI.**

**KICHIK BIZNES VA XUXSUSIY
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
SOLIQA OID MAJBURIYATLARI.**

**KICHIK BIZNES VA XUXSUSIY
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA
BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISH.**

**KICHIK BIZNES VA XUXSUSIY
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI
BIZNES-REJASI.**

**2.2 «TADBIRKORLIKNI BIZNESNI YURITISHNING
MOLIYALASHTIRISH MANBALARI» mavzusini
o'qitishning texnologik modeli**

Mavzu	TADBIRKORLIKNI BIZNESNI YURITISHNING MOLIYALASHTIRISH MANBALARI
--------------	--

1.1. Ma'ruzani o'qitish texnologiyasi

O'quv soati: 2 soat.	Talabalar soni: 20 ta
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Informastion ma'ruza
<i>O'quv mashg'ulotining rejasi</i>	1. To'g'ridan – to'g'ri investitsiyalar. 2. Kreditlar. 3. Lizing. 4. Grantlar
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi</i>	Talabalarga “kichik biznes va xususiy tadbirkorlik” fani bo'yicha nazariy bilimlarni hosil qilish va ularni amaliyotda qo'llashga hamda dars berishga o'rganishdan iborat.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - o'quv mavzunining maqsadi, vazifalari va boshqa fanlar tizimida tutgan o'rnini tushuntiradi; - o'quv mavzunining tarkibi va foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtiradi; - mavzunining predmeti va vazifasining mohiyati to'g'risida tushuncha berish; - "kichik biznes va xususiy tadbirkorlik" tushunchasi va tamoyillari tavsifini yoritib berish;	<i>O'quv faoliyati natijasi:</i> - mavzunining maqsadi, vazifalarini va boshqa fanlar tizimidagi tutgan o'rnini bilib shakllantira oladi; - o'quv mavzunining strukturasini tushuntiradi; - foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini va o'quv faoliyatini baholash shakllarini tushuntiradi; - mavzunining predmeti va vazifasining mohiyati izohlab beradi; - "kichik biznes va xususiy tadbirkorlik" tushunchasi va tamoyillari tavsifini ochib beradi;
<i>O'qitish uslublari</i>	Ma'ruza, aqliy hujum, Blist-so'rov, namoyish etish.
<i>O'qitish vositalari</i>	O'quv qo'llanma, ma'ruza matnlari, kompyuter texnologiyasi, grafiklardan

	foydalanish.
<i>O'qitish shakli</i>	Jamoa bo'lib ishlash, guruhlarda ishlash
<i>O'qitish shart-sharoitlari</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan, o'qitish usullarini qo'llash mumkin bo'lgan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Nazorat savollari shaklida

1.1.1. Ma'ruzaning texnologik kartasi. (1-mashg'ulot)

Ish bosqich-lari	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 minut)	1.1.O'quv kursining asosiy mazmuni, tarkibiy tuzilishi va o'tiladigan mavzular bilan tanishtiradi. 1.2.Asosiy adabiyotlar ro'yxati taqdim etiladi. 1.3.O'tiladigan mavzuning maqsadi va kutiladigan natijani e'lon qiladi. 1.4. O'quv mashg'ulotida baholash me'zoni e'lon qilinadi. 1.5.O'quv mashg'ulotini o'tkazish tartibini talabalarni faollashtirish natijasida o'tilgan mavzuda savollar beriladi.	Eshitadi.
2-bosqich. Asosiy bosqich (50 minut)	2.1.Mashg'ulotning asosiy vazifalarini yechish uchun talabalardan to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarning mohiyati so'raladi 2.2. Mavzu yoritiladi. 2.3.Lizing haqida tushuncha beriladi. Ma'ruza	Talabalar 3 guruhga bo'linadi va berilgan texnologik usullar bo'yicha

	aqliy hujum usulidan foydalanilgan holda olib boriladi. (3 (1.1.1) - Ilova). 2.4.Tarqatma material beriladi. 2.5. Baholanadi.	ishlaydilar. Guruh boshliqlari ularni himoya qiladi.
3-bosqich. Yakuniy bosqich (10 minut)	3.1. O'tilgan mashg'ulot bo'yicha yakun yasaydi, ular qayerlarda kerak bo'lishi aytiladi. 3.2.Talabalar faoliyati tahlil qilinadi. 3.3.Mustaqil tayyorgarlik uchun uyga quyidagi vazifalar beriladi; 1. "O'z biznesingni yarating" kursini kasb hunar kollejlarida o'qitishning ahamiyati 2. Tadbirkorlik uchun qanday imkoniyatlar berilmoqda?	Talabalar eshitadi, yozib oladi.

1 (1.1.1) - Ilova

Baholash mezonlari: « O'z biznesingni yarating » mavzusi bo'yicha talabalar quyidagi reyting ballarida baholanadi:

30% - 30 ball - joriy baho; 86-100% - 229.2 – 256,0 ball – «a'lo»

40% - 40 ball – oraliq baho; 71-85% - 182,0 – 229,0 ball – «yaxshi»

30% - 30 ball – yakuniy baho. 55-70% 141,0–178.8 ball – «qoniqarli»

2 (1.1.1) - Ilova

Guruhni baholash jadvali.

Guruhlar	Javoblarning aniq, ravshanligi (1,0)	Axborotning ishonchliligi (0,5)	Guruh a'zosining faolligi (0,5)	Umumiy ballar	Baho
1					
2					
3					

Guruh rahbarining chiqib tushuntirib berishi:

1,5 - 2 ball – a'lo

1,0 - 1,4 ball – yaxshi

0,5 - 0,9 ball – o'rta

Aqliy hujum qoidalari:

- Hech qanday o'zaro tanqid va baholash bo'lmasligi kerak!
- Taklif qilinaetgan g'oyaga baho berishdan saqlan, agar u juda yuqori va bajarilish ehtimoli bo'lmasa ham - hammasiga ruxsat beriladi.
- Barcha keltirilgan g'oyalar qimmatli va teng kuchli – ularni tanqid qilmaslik kerak.
- Javob berayotganni to'xtatmaslik kerak!
- Kamchilik ko'rsatishdan saqlang!
- Maqsad miqdor hisoblanadi!
- Qancha ko'p fikr bildirilsa shuncha yaxshi: Yangi va qimmatli g'oyaning tug'ilishiga ehtimol shunchalik ko'p bo'ladi.
- Fikrlar takrorlansa e'tibor bermaslik kerak.
- Paydo bo'lgan g'oyani agar u sening nazaring bo'yicha qabul qilingan sxemaga javob bermasa ham tashlab yubormaslik kerak.
- Ushbu muommani faqat mavjud usullar bilan echish mumkin deb o'ylama.

1.2. Amaliy mashg'ulotni o'tqizish texnologiyasi

2 soat	Talabalar soni: 20
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Amaliy mashg'ulot

<i>Mashg'ulot rejasi</i>	1. Tadbirkor uchun investitsiyaning ahamiyati 2. Tadbirkorlikda kreditning roli 3. Lizing bu ijara munosabatlarining alohida ko'rinishidir 4. Grantlar
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Talabalarning tadbirkorlikni (biznesni) yuritishning moliyalashtirish manbaalari to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirish.
<i>Pedagogik vazifa:</i> - Tadbirkorlikni yuritishning moliyalashtirish manbaalari to'g'risidagi nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash; 1. – Biznes reja tuzishning ahamiyatini izohlash.	<i>O'quv faoliyati natijasi:</i> - Tadbirkorlikni yuritishning moliyalashtirish manbaalari to'g'risidagi nazariy bilimga ega bo'ladi; - O'z biznesingni yaratishning ahamiyati aniqlanadi.
<i>O'qitish usullari</i>	Amaliy mashq, «jamo bo'lib ishlash» usuli;
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruza matni, ekspert varaqlari, grafiklardan foydalanish, Venna-diogrammasi
<i>O'qitish shakli</i>	Guruhlarda ishlash usuli.
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan, guruhlarda ishlash usulini qo'llash mumkin bo'lgan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Nazorat savollari

1.2.1. Amaliy mashg`ulotning texnologik kartasi
(1-mashg`ulot)

Ish bosqich-lari	Faoliyat mazmuni	
	O`qituvchi	Talaba
1-bosqich (15 min)	1.1. O`quv mashg`uloti mavzusi, maqsadi va o`quv faoliyati natijalarini e`lon qiladi. 1.2. Amaliy mashg`ulotni o`tkazish xususiyatlari bilan talabalarni tanishtiradi. 1.3. Mavzu bo`yicha topshiriqlarni tarqatadi. 1.4. Savollar berib talabalarning bilimlarini faollashtiradi.(1(2.1) - Ilova)	Eshitishadi va yozib olishadi
2-bosqich (55 min)	2.1. Mashg`ulotning asosiy vazifalarini echish uchun talabalar guruhlariga inson tushunchasi bo`yicha har xil fikrlarni ko`rib chiqish va tugagandan so`ng prezentastiya qilishni topshiradi. Bajarilgan ishga talabalar baho beradilar. 2.3. Talabalar faoliyatini kuzatadi, yo`naltiradi, maslahatlar beradi</p> <p>2.4. Taqdimotni e`lon qiladi.	Talabalar 4 guruhga bo`linib ishlaydilar.</p> <p>Talabalar javob izlaydi va o`zi ham fikrini guruh rahbarlari orqali qo`shadi.
3-bosqich 10 min.	O`tilgan mashg`ulot bo`yicha nazorat savollariga javob berish va yakun yasash.	Eshitadi va yozib oladi.

1(2.1) - Ilova

Bilimlarni faollashtiruvchi savollar:

- 1.O'z biznesingizda qaysi moliyaviy manbalardan foydalanishingiz mumkin va nima uchun?
- 2.Kichik biznes iqtisodiyotni rivojlantiruvchi omil sifatida mohiyati nimada?
3. Tadbirkorlikda investitsiyaning roli?
4. Kreditning qanday turlarini bilasiz?
- 5 Lizing nima?
6. Tadbirkorlar uchun beriladigan grandlar bu nima?

2 (2.1) - Ilova

Guruhni baholash jadvali.

Guruhlar	Javoblarning aniq, ravshanligi (1,0)	Axborotning ishonchliligi (0,5)	Guruh a'zosining faolligi (0,5)	Umumiy ballar	Baho
1					
2					
3					

Guruh rahbarining chiqib tushuntirib berishi:

1,5 - 2 ball – a'lo

1,0 - 1,4 ball – yaxshi

0,5 - 0,9 ball - o'rta

4 (2.1) - Ilova

Mustaqil ishlash uchun nazorat savollari


1. Kichik biznes va yakka tadbirkorlik o'rtasida qanday tafovut mavjud?

2. Kichik biznes iqtisodiyotni rivojlantirishda qanday rol o`ynaydi?
3. Muddatiga ko`ra kredit turlari necha xil bo`ladi?
4. Kichik sub`ektlari loyihalarini moliyalashtirishda xalqaro moliya institutlarning ahamiyati?

(2.1)-Ilova

Venna – diagrammasi

Venna-diagrammadan foydalanib kichik biznes va yakka tartibdagi tadbirkorlikning umumiylik va alohida xususiyatlarini (ahamiyati) belgilang.



2.2.6.O`quv topshirig`i

1. Avval olingan bilibmlarni qo`llab, pastdagi jadvalni to`ldiring.
2. Savollar bo`yicha birga taqdimot qiling (1-3).
3. “Kichik biznes” atamasining va “yakka tartibdagi tadbirkorlik” atamasidan farqli momonlarini ajrating.

Kichik biznes	Oziga xos xususiyatlari	yakkatartibdagitadbirkorlik
	1. Bu ikki atama o`rtasida qanday o`xshashlik mavjud?	
	2. Bu atama nima bilan	

	bir birovidan farqlanadi?	
	3.Ikkala atama dan qay biri O`zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida samarali hisoblanadi?	
	4. Bu atamalarning ob`ektini nima tashkil qiladi? (o`zingizning fikringizni bildiring)	

Ish tartibi va reglamaenti

1. Guruhlarda ishlash - 20 daqiqa.
2. Taqdimot - 10 daqiqa.
3. Jamoaviy muhokama va o`zaro baholash – 15 daqiqa

O`quv faoliyatini baholash ko`rsatkichlari va mezonlari

Guruhlar	Savol yoritishning to`liqliligi (5 ball)	Javoblarga boshqa guruhlarining to`ldirishi (0,5 balldan)	Bashorat varianti (2 ball)	Umumiy ball
1				
2				
3				

2.3. “TADBIRKORLIKNI (BIZNESNI) YURITISHNING MOLIYALASHTIRISH MANBALARI MAVZUSINI ELEKTRON TAQDIMOTI (POWER POINT PRESENTAION)

ELEKTRON KO`RGAZMALI TAQDIMOT

MAVZU: "TADBIRKORLIKNI (BIZNESNI) YURITISHNING MOLIYALASHTIRISH MANBALARI"

Taqdimotchi: 5140900 – “Kasbiy-talim”
(ijtimoiy-iqtisodiy soha) yo`nalishi kunduzgi
bo`lim 4 kurs talabasi O`roqov Aziz


Maruza rejasi:

1. «To`g`ridan-to`g`ri investetsiyalar.
2. Kreditlar.
3. Lizing.
4. Grantlar.



2011 yilga Yurtboshimiz tomonidan “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” deb nom berilishi Farmonning uzoqni o‘ylagan holda hamda o‘z vaqtida qabul qilinganligini anglatibgina qolmay, uning ahamiyatini yanada oshiradi, shu bilan bir qatorda, keyingi davr mobaynida aynan shu sohada yanada chuqurroq islohotlar amalga oshirilishini talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2010 yil 28
iyuldagi PF-4232-sonli Farmoni



1-SAVOL

Investetsiyalar, Investor ,Investisiya faoliyati qatnashchisi,qayta investetsiyalash tushunchasi.


Uzbekiston Respublikasining “Investisiya faoliyati to’g’risidagi”
Qonunida yoritilgan va sarmoyalar bilan bog’langan asosiy
tushunchalarni ko’rib chiqamiz:

1. Investetsiyalar – iqtisodiy yoki boshqa faoliyat obyektiga qo’yiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga nisbatan huquqlardir.
2. Investor-investisiya faoliyati subyekti bo’lib, shaxsiy qarzga olingan va jalb qilingan mablag’larni mulkiy boyliklarini va ularga nisbatan huquqni. Shuningdek intellektual mulkka nisbatan huquqni investetsiya obyekti sifatida sarmoyalashni amalga oshiradi.
3. Investetsiya faoliyati qatnashchisi- investorlik buyurtmalarini bajaruvchi sifatida sarmoyadorlik faoliyatini amalga oshiruvchi sarmoyadorlik faoliyati subyekti.
4. Qayta investisiya faoliyati natijasida olingan foydani (daromadni) faoliyatga kiritish.


2-savol

KRIDETLAR BU NIMA?

KREDIT QARZGA PUL OLISHNING ENG KENG TARQALGAN SHAKLI HISOBLANADI. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MILLIY VALYUTADAGI KREDIT MABLAG'LARI MANBAI BO'LIB TIJORAT BANKLAR SHUNINGDEK BYUDJETDAN TASHQARI FONDLER MABLAG'LARI HISPBLANADI. ULAR XUSUSIY TADBIRKORLIKNI KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHGA YORDAM BERISH UCHUN MAXSUS TASHKIL ETILGAN.




1diagramma



Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi

2-diagramma




Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi

MIKROKREDITLARGA QANDAY KREDIT?

MIKROKREDITLAR HUKUMAT TOMONIDAN TADBIRKORLIKNI MOLIYAVIY QO'LLAB –QUVVATLASH NUQTAI NAZARIDA KATTA E'TIBOR BERILMOQDA.

MIKROKREDITLAR BIR QATOR KO'RSATKICHLAR BO'YICHA SIZ UCHUN QULAYDIR. KREDIT OLISH QOIDASI BIR MUNCHA SODDALSHTIRILGAN, GAROV TA'MINOTINING BARCHA SHAKLLARI HAL ETILGAN, KREDIT PULLARINI BIR QISMI NAQT SHAKLIDA OLINADI. AYLANMA RESURLAR HARITA ASOSIDA KREDIT DERISH MASALALARI NISBATAN OSON HAL ETILADI.


Kichik biznes sub'yektlari loyihalarni moliyalashtirish uchun halqaro moliya institutlari bilan hamkorlik



3 - savol

Lizing nima?

Lizing – bu ijara munosabatlarining alohida ko'rinishidir.



Yaratilga qo'shimcha moliyaviy imtiyozlar

O'zbekiston Respublikasi prezidenti 2011-yil 24 avgustdagi “ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga doir qo'shimcha chora tadbirlar” to'g'risidagi pf-4354-sonli farmoniga muvofiq Xalq banki va mikrocreditbank tomonidan Germaniyaning Xalqaro hamkorlik bo'yicha omonat kassalari jamg'armasi bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan bo'lib ushbu jamg'arma mablag'lari evaziga mazkur banklarda kichik tadbirkorlikni mikrocreditlash Jamg'armasi shakllantirilgan Mazkur Jamg'arma mablag'lari – boshlang'ich kapitalini shakllantirish uchun ayol tadbirkorlarga mikrocreditlar berishni ko'zda tutadi.

- Mikrocreditbank “ Yosh tadbirkor – yurtga madadkor” loyihasi (2008 yildan buyon);
- Agrobank “ Yosh tadbirkor – kelajakka poydevor” loyihasi (2010 yildan buyon)
- Ipotekabank, Mikrocreditbank, Qishloq qurilish banki, Agrobank “ Mening biznes g'oyam” loyihasi(2011 yil) amalga oshirilmoqda

XULOSA

Ushbu bitiruv malakaviy ishi natijalari asosida, qo`yidagi xulosalarga kelindi:

1. Prezidentimiz tomonidan 2011 yilni “ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” deb e`lon qilinganligi tadbirkorlarimizni quvontirib, yangi tadbirkorlarimiz o`z ishlarini boshlashda yanada ko`proq yo`llarni ochib berdi. Yurtimizda tadbirkorlar qo`llab- quvvatlanayotgan ayniqsa , kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlariga soliq borasida imtiyozlar berilayotgan ekan, ularning iqtisodiyotimiz rivojiga qo`shayotgan hissasi yanada salmoqli bo`lishiga hech shubha yo`q.

2. Kichik biznesning mohiyati va iqtisodiyotda tutgan o`rni, xorijda va O`zbekistonda kichik biznesning rivojlanishi, kichik biznes faoliyatini tashkil etish, taxlil etish, rejalashtirish, boshqarish, kichik biznesni bank, soliq xizmati va audit bilan aloqalari, uni moliyaviy holati va kredit bilan ta`minlash shakllari, kichik biznesni axborot bilan ta`minlash usullari, kichik biznes korxonalarida tijorat faoliyatini tashkil etish yullari, kichik biznesni boshqarish psixologiyasi kabi dolzarb muammolar batafsil bayon etilgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi Respublika yalpi ichki maxsulotiga ham katta ta`sir qildi natijada 2011 yilga kelib 54% ni tashkil qildi.

3. O`zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan bank va tadbirkorlar o`rtasiagi keng munosabatlar yo`lga qo`yilgan. Tadbirkorlar uchun banklarda imtiyozli kreditlar joriy etildi. 2012 yilga kelib tadbirkorlar uchun yagona soliq stavkasi 5 foiz qilib belgilandi. Tadbirkorlini rivojlantirish uchun prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan qator farmonlar joriy qilindi. Bundan ko`rinib turibdiki tadbirkorlar erkin faoliyati va ularning yuqori foyda olishiga davlat tomonidan yetarli imkoniyatlar yaratib berilgan.

4. Kichik biznes va tadbirkorlik fanini o`qitilishi davr talabining taqozosi, bozor munosabatlariga o`tishning ob`ektiv zaruriyatidan kelib chiqqan. Shu tufayli bu fanni o`qish, o`rganish yoshlarimizni, talabalarni va shunday faoliyat turi bilan

shug'ulanuvchilarni bilimini oshiradi, to'ldiradi, ularning tadbirkorlik sohasidagi qobiliyati, tashabbusi va foydali xatti - xarakatlarini oshiradi

5. “O'z biznesingizni yarating” o'quv kursidan kasb hunar kolleji o'quvchilari uchun dars o'tish jarayonining texnologik xaritasi batafsil yoritib berilgan. Bu borada bilimlarni chuqur o'rgangan holda kelajakda shu sohani rivojlantirishga erishish maqsad qilib qo'yilgan.

6. . “O'z biznesingizni yarating” o'quv kursidan tadbirkorlikni biznesni yuritishning moliyalashtirish manbalari mavzusida electron ko'rkazmali taqdimoti usulida talabalarga dars o'tish. Bunda jadvallar, sxemalar, diagrammalar va savol javoblardan foydalangan holda darsni qiziqarli qilib o'tishdan iborat. Yangi pedagogic texnologiyalardan foydalanish jarayonida dars o'tish talabalarning bilim saviyasini ko'taradi va qiziqish uyg'otadi.

Bitiruv malakaviy ishi natijasida quyidagi tavsiyalarni beramiz:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasidagi har bir kasb hunar kollejlari bitiruvchilari bitiruv malakaviy ishidan oldin o'z biznes rejasini tuzishi va amalda qo'llashi ko'zda tutilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ikkinchidan, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarning tadbirkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida ularni o'qitilayotgan “O'z biznesingni yarating” asoslari maxsus fani dasturida “Kichik biznes va xsusiy tadbirkorlikni rivojlantirish” mavzusini 6 soat hajmiga kengaytirib o'qitishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Uchinchidan, bitiruv malakaviy ishi doirasida yaratilgan “Kichik biznes va xsusiy tadbirkorlikni rivojlantirish va bu masalani o'qitish uslubiyoti” mavzusini o'qitishning texnologik modelini mazkur mavzuni o'qitishda qo'llash, hamda kasb-hunar kollejlari uchun uslubiy qo'llanma sifatida tavsiya etish.

To'rtinchidan, bitiruv malakaviy ishining 2.3. paragrafidagi kompyutorning Power Point

Presentaion dasturi asosida yaratgan “Kichik biznes va xsusiy tadbirkorlikni rivojlantirish va bu masalani o’qitish uslubiyoti” mavzusini ko`rgazmali elektron taqdimoti slaydlaridan “O`z biznesingni yarating” maxsus fanini o`qitish jarayonida keng foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni // Xalq so'zi, 2005, 16 iyul.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. "Barkamol avlod yili" Davlat dasturi to'g'risida. 2010 yil 27 yanvar'.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". 2010 yil, 28 iyul', PF-4232-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Uy-joy fondini foydalanishga tayyor holda rekonstruktsiya va ta'mirdan o'tkazish uchun pudrat ishlari ko'lamini kengaytirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 29 yanvar', PH-1051-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Mamlakatimizdan oziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirishni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 28 yanvar', Ph-1050-son.
6. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilliga bag'ishlangan "Bizning yo'limiz Demokrtik isloxotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish" nomli ma'ruzasi. Xalq so'zi 2011 8 dekabr.
7. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: O'zbeki ston 2010
8. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbeki ston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: O'zbeki ston 2009.
9. Karimov I.A. "Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir". O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2005, 29 yanvar, 20-son.

10. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. - T.: O'zbekiston 1997.

11. Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. - Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 30 yanvar'.

12. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish - ustuvor maqsadimizdir. - Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 28 yanvar'.

13. O'zbekiston Konstitutsiyasi - biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. - Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2009 yil 6 dekabr'.

14. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / I.A. Karimov. - T: O'zbekiston, 2009. - 56 b.

15. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2009 yil 14 fevral'.

16. Karimov I.A. Eng asosiy mezon - hayot haqiqatini aks ettirish. T.: O'zbekiston, 2009. - 24 b.

17. Tavar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatalari to'g'risidagi .

Uz.Res.qonuni. 1997 yil 24 aprel

18. "Menejment va biznes asoslari" G'ulomov.S.S tahriri ostida . T. Mehnat. 1997 y

19. "Biznes asoslari" Rayzberg B.A Moskva , " Os – 98" 1996 y
20. "Kichik biznesni qo'llab quvvatlashni tashkil etish" V.Sh.Karaganova tahriri ostida
21. "O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish" T. 1995
22. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asoslari" G'ulomov S.S , Axmedov.D.K, Boyev.X.I . T 1996.
23. "Kichik biznes va tadbirkorlik" o'quv qo'llanma M.R. Boltaboyev Sh. F.Halimov . Sh.J.Ergashxo'jayeva, P. Xo'djayev, B.K. G'oyibnazarov va b.
24. "Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish " ma'ruza matn T. D.I.U 2005 y
25. "Tadbirkorlik va kichik biznes" G'ulomov S.S T . 2001 y
26. " Biznesda tavakkalchilik va stresslarni boshqarish" Sharifxo'jayev.M, Abdullayeva .Yo T. Mehnat 2001 y
27. "Pul va moliya bozorlari" Chjen B. A T. 1996 y
28. Abdullaev Yo., Karimov F. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari.-T.: Mehnat, 2000.
29. Oblomurodov N.N. "Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari" o'quv qo'llanma T. 2011.
30. Eremenko A. Razrabotka biznes-prilozheniiy v Microsoft Business solutions-Alapta versii. 3.0/Feleksey Ermenenko, Ruslan SHashkov. -M.: Al'pina Biznes Buks, 2005.-503 s.
31. Xodiev B.Yu., Qosimova M.S., Samadov A.N., Muxiddinova U.S. Kichik biznesni boshqarish. -T.: "O'qituvchi", 2003.
32. Xodiev B.Yu., va boshqalar. Kichik tadbirkorlik asoslari (o'quv-amaliy qo'llanma)-T.:EH. TEMPUS "Konsaudit", 2004.

Internet saytlari:

33. <http://www.ced.bg/eng/projects/project12/publication/book/pdf>
34. [www. gov. uz.](http://www.gov.uz)
35. [http ://nalog/uz/;](http://nalog.uz/)

Bosh sahifa / Farmonlar

“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”

24.08.2011

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotining asosi bo‘lgan xususiy mulk ustuvorligini mustahkamlaydigan barqaror qonunchilik bazasi yaratilganini qayd etish zarur. O‘rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror yuksaltirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadini oshirishning muhim omili bo‘lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bo‘yicha qulay ishbilarmonlik muhiti hamda ishonchli huquqiy kafolatlar yaratildi.

Natijada so‘nggi o‘n yilda yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik biznes ulushi 31,1 foizdan 52,5 foizga o‘sdı, ushbu sohada bandlik darajasi iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band aholi umumiy sonining 49,7 foizidan 74,5 foizigacha oshdi. Aholi daromadlarining 47 foizdan ziyodi tadbirkorlik faoliyatidan tushgan daromadlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” Davlat dasturiga muvofiq joriy yilda tadbirkorlik faoliyatini keng rivojlantirish uchun yanada qulay biznes-muhitni yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar qabul qilindi.

Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va ularni muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulash tartibi sezilarli darajada soddalashtirildi hamda bu jarayon yanada ochiqlik kasb etdi. Ro‘yxatga olish uchun davlat boji stavkasi ikki barobarga qisqartirildi. Ishchilarning yillik o‘rtacha soni 100 kishigacha ko‘paytirilgan kichik korxonalar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxati sezilarli darajada kengaytirildi. Kichik biznes

subyektlarini davlat xaridlari jarayoniga keng miqyosda jalb qilish mexanizmi ishlab chiqildi va joriy etildi.

Davlat va nazorat idoralarining korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga aralashuvini keskin kamaytirish hamda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy erkinligi va huquqlarini sezilarli ravishda kengaytirish bo'yicha choralar qabul qilindi. Yangi tashkil qilingan kichik korxonalar va mikrofirmalarni rejali soliq tekshiruvlaridan ozod etish muddati ikki yildan uch yilga uzaytirildi. Soliq va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'layotgan, shuningdek, ishlab chiqarishning barqaror o'sish sur'atlari va rentabelligini ta'minlayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarida uch yil davomida soliq tekshiruvlarini o'tkazish taqiqlandi.

Tijorat banklarini kapitallashuv darajasi oshmoqda, kichik biznes subyektlarini, ayniqsa, ularning yuqori texnologik uskunalari xarid qilishi uchun imtiyozli kreditlash mexanizmi takomillashtirildi.

Shu bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan, tadbirkorlik faoliyati erkinligini cheklayotgan bir qator muammolar hal etilmay qolmoqda.

Tadbirkorlik subyektlarining davlat, soliq va nazorat idoralari, tijorat banklari bilan o'zaro munosabatlarini aniq belgilab beradigan ma'muriy reglament to'liq ishlab chiqilmagan. Ochiqligi ta'minlanmagan ko'plab ruxsat berish tartiblari hamon saqlanib qolmoqda. Nazorat idoralarining tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga noqonuniy aralashish holatlari uchramoqda. Kichik biznes mahsulotlarini hududiy va jahon bozorlariga olib chiqish bo'yicha amaliy mexanizm yaratilmagan.

Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash, bozor islohotlarini liberallashtirish va chuqurlashtirish yo'lidan jadal harakat qilish, tadbirkorlikka ko'proq erkinlik berish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi to'siq va g'ovlarni bartaraf etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotidagi roli va ulushini oshirish, eksport salohiyatini rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini ta'minlash maqsadida:

1. Quyidagilar Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, idoralar, xo‘jalik birlashmalari, tijorat banklari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat, shahar va tumanlar hokimliklarining muhim vazifalari deb hisoblansin:

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi ortiqcha byurokratik to‘siq va g‘ovlarga barham berish, davlat boshqaruvi funksiyalarini qisqartirish va tadbirkorlikka ko‘proq erkinlik berish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish, davlat boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshirilayotgan turli ruxsat berish me‘yorlari hamda cheklash tartiblarini keskin qisqartirish;

tadbirkorlik faoliyati subyektlarining davlat boshqaruvi idoralari, soliq va nazorat tuzilmalari bilan o‘zaro munosabatlarida ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash, hisobotlar tizimi hamda moliya, soliq va statistika idoralariga hisobotlarni topshirish mexanizmini ularni elektron tizim bo‘yicha taqdim etishga bosqichma-bosqich o‘tish orqali tubdan soddalashtirish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga soliq, bojxona hamda boshqa to‘lovlar bo‘yicha tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish va uning samaradorligini oshirishga ko‘maklashadigan qo‘shimcha imtiyoz hamda preferensiyalar berish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tijorat banklari bilan o‘zaro hamkorlik mexanizmini yanada takomillashtirish va soddalashtirish, tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, ularga ajratilayotgan kreditlar, birinchi navbatda, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilishga va texnologik yangilashga yo‘naltiriladigan uzoq muddatli kreditlar hajmini ko‘paytirish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatda keng ishtirok etishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning mahsulotlarini tashqi bozorlarga olib chiqishga ko‘maklashish, eksport shartnomalarini ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonini hamda umuman bojxona ma‘muriyatchiligini soddalashtirish va liberallashtirish.

2. Belgilansinki, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining barcha darajadagi davlat

boshqaruvi idoralari, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari, tijorat banklari bilan o‘zaro munosabatlarida tadbirkorlar huquqlari ustuvorligi prinsipiga amal qilinadi, ya’ni, unga muvofiq, me’yoriy-huquqiy hujjatlardagi bartaraf etib bo‘lmaydigan barcha ziddiyatlar va noaniqliklar tadbirkorlar foydasiga talqin etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Adliya vazirligi, boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda amaldagi qonun hujjatlariga ularda tadbirkorlar huquqlari ustuvorligi prinsipini belgilashni ko‘zda tutuvchi o‘zgartish hamda qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi takliflarni puxta ishlab chiqsin va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga taqdim etsin.

3. Belgilab qo‘yilsinki, 2012 yilning 1 yanvaridan sanoat sohasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovi stavkasi 6 foizdan 5 foizga kamaytiriladi.

4. 2011 yilning 1 oktabridan boshlab shunday tartib joriy etilsinki, unga muvofiq: soliqlar, bojxona bojlari va yig‘imlari, shuningdek, boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash muddatlarini buzganlik uchun penya miqdori kechiktirilgan har bir kun uchun penyani hisoblash tartibi saqlangan holda, amaldagi miqdoriga nisbatan uchdan bir qismga kamaytiriladi;

yuridik shaxslar tekshiruvlar natijalari bo‘yicha qo‘shimcha hisoblangan soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni, shuningdek, moliyaviy sanksiyalarni undirish to‘g‘risida qaror qabul qilingan kundan boshlab olti oy mobaynida teng ulushlarda to‘lash huquqiga ega.

5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, Moliya vazirligi O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi bilan birgalikda barcha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini 2014 yilning oxirigacha soliq va moliyaviy hisobotlarni topshirishning elektron tizimiga bosqichma-bosqich o‘tkazishni ta’minlasin.

6. Markaziy bank, O‘zbekiston banklari assotsiatsiyasi, tijorat banklarining tadbirkorlik subyektlariga nisbatan bank faoliyatining yanada ochiqqligini oshirish

va liberallashtirish bo'yicha quyidagilarni nazarda tutuvchi takliflari qabul qilinsin:

2011 yil 1 sentabrdan kichik biznes subyektlaridan tijorat banklarida milliy valutada hisobraqami ochganlik uchun to'lov undirishni bekor qilish;

tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining kelishilgan hajmda kreditlar ajratish haqidagi arizalarini ko'rib chiqish muddatini uch bank kunidan oshmaydigan muddat bilan cheklash;

xo'jalik subyektlari tomonidan savdo va servis sohasida xarid qilinadigan tovar (ish, xizmat)lar uchun korporativ plastik kartalaridan foydalangan holda to'lovlarni amalga oshirishda to'lov terminallari cheklarini birlamchi buxgalterlik hujjatlariga tenglashtirish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga bank muassasalariga eng kam ish haqining yigirma barobari miqdorigacha bo'lgan naqd pul tushumini mustaqil topshirish huquqini berish.

7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki O'zbekiston banklari assotsiatsiyasi, tijorat banklari bilan hamkorlikda bir oy muddatda xalqaro moliya tuzilmalari, xorijiy jamg'armalar va banklar bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga tijorat banklari tomonidan yangi texnologik uskunalar xarid qilish uchun beriladigan kreditlarning garov bilan qoplanmagan qismi bo'yicha ta'minotni taqdim etish uchun Tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha kafolatlash fondini tashkil etish to'g'risidagi takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

8. Mikrofirmalar va kichik korxonalar o'zi ishlab chiqargan tovar (ish, xizmat)larni eksport qilishdan tushadigan valuta tushumining 50 foizini majburiy sotishdan ozod etilsin.

9. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining "Markazsanoateksport" davlat aksiyadorlik tashqi savdo kompaniyasi qoshida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mahsulotlarini eksport qilish bo'yicha "O'ztadbirkoreksport" ixtisoslashtirilgan tashqi savdo kompaniyasini tashkil etish va 2011 yilning oxirigacha respublika hududlarida uning vakolatxonalarini ochish to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin.

10. Xo‘jalik subyektlari o‘rnatilgan texnologik uskunalarga Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha respublika hududiga olib kelinadigan ehtiyot va butlovchi qismlar uchun 2016 yilning 1 yanvarigacha bojxona to‘lovlarini (bojxona rasmiylashtirish yig‘imlari bundan mustasno) to‘lashdan ozod etilsin.

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda quyidagilarni nazarda tutuvchi qonunchilik hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari loyihalarini O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritсин:

yuridik shaxslar uchun soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblash bilan bog‘liq bo‘lmagan sanksiyalarni bekor qilish, ayni paytda takroriy qonunbuzarlikka yo‘l qo‘ygan xo‘jalik subyektlarining mansabdor shaxslarining ma‘muriy javobgarligini ikki barobarga oshirish;

bojxona nazorati muddatini uch yil bilan cheklash, shuningdek, tovarlar bojxona nazoratidan o‘tkazilgandan bir yil keyin, bojxona to‘lovlarini qo‘shimcha hisoblashni taqiqlash.

12. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi Adliya vazirligi bilan hamkorlikda bir oy muddatda Vazirlar Mahkamasiga mazkur Farmondan kelib chiqadigan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida taklif kiritсин.

13. Ushbu Farmon ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri SH.Mirziyoyev zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov

Toshkent shahri, 2011 yil 24 avgust.

© 2008 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
matbuot xizmati